

@Official_AKT

2021-yil

2020 - 2021 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING

10 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN TARIX FANIDAN

MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN

IMTIHON JAVOBLARI

@Official_AKT

1-BILET

1. Ashtarkoniylar davlatining tashkil topishi.

1598-yilda Abdullaxon vafot etgach, shayboniylar o'rtasida loju taxt uchun kurash boshlanib, bu kurash oxir-oqibat mazkur sulolaning butunlay qirilib ketishiga Olib keldi. Buxoro xonligi taxtiga vorislikka shayboniy uning lardan hech kim qolmagan edi. Ana shunday bir paytda Buxoroda amirlar kengashib, 1554-yili ruslarning Ashtarkonni (Astraxan, ya'nii Hojitarxon xonligini) istilo qilishi davrida Buxoroga qochib kelgan Yermihammadxonning o'g'i Jonibek siltomni (u Abdullaxonning singlisiga uylanganligi tufayli shayboniylarga kuyovdosh edi) xon qilib ko'tarmoqchi bo'ldilar Jonibek in'om qilingan taxtdan bosh tortdi. Amirlar uning katta o'g'i Diniyimhammadni xon qilib ko'tardilar. Bu vaqtida u Obivardda edi. U Buxoroga kelayotib yo'lda halok bo'ldi. Shundan keyin uning ukasi Boqimhammad xon qilib ko'tarildi Jonibekning uchinchi o'g'i Valimhammad taxt vorisi (valiahd) deb e'lon qilindi va Balxga noib qilib yuboriidi.

Ana shu tariqa, 1599-yilda Movarounnahrda yangi sulola -ashtarkoniylar - «joniylar» (joniyur nomi urug boshlig'i Jonibekning nomidan olingan) sulolasini tashkil topdi. Bu davlatda rasman oliy hokimiyat Jonibek Sultan qo'lida bo'lib, uning nomidan tangalar zarb etilgan, uning nomi xufbaga qo'shib o'qilgan.

Boqi Muhammad xonlikdag'i ichki siyosiy nizolarga chek qo'yishga harakat qildi, xonlikning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan himoya qilish choralarini ko'rdi. Balx viloyatidau eroulklarni haydar chiqarib, u yerga ukasi Vali Muhammadxon hokim etib tayinladi. Lekin XVII asr boshlarida Buxoro xonligi hududi Abdullaxon Ikkimechi davridagiga qaranganda juda qisqarib ketgan edi. Ashtarkoniylar Xoraznni va Xurosuning katta qismini butunlay qo'ldan boy berdilar. Toshkent uchun qozoq sultonlari bilan ko'plab urushlar Olib borishga to'g'ri keldi. Boqi Muhammaddan song taxtga Vali Muhammad o'tirdi. Uning qisqa hukmronligi davrida (1606-1611) ichki kurashlar yanada kuehaydi, yirik o'zbek qabilalari beklani iqtisodiy siyosiy jihatdan katta kuchiga ega bo'lib, xon hokimiyatiga bo'yusumas edilar. Markaziy hokimiyat mamlakatda vaziyatni nazorat qilolmas, hududiy yaxlitligini ta'minlay olmas edi. Yangi xonning markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi unga qarshi fitua bilan yakunlandi va taxmi Boqi Muhammadxonning o'g'i Inomqajixon egalladi. U o'zining nisbatan uzoq davom etgan hukmrooligi davrida (1611-1742) xonlikda hukm surayotgan o'zaro feodal tunshlarga chek qo'yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan bo'sada, Xurosou va Xoraznni qayta qo'lg'a kirita olmadi. Toshkent va xonlikning shimoliy chegaralari uchun ko'chmanchi qabilalar: qozoqlar, qalmiqlar, mo'g'ullarga qarshi imuvaffaqiyatlari kurash Olib bordi va xonlik hududini shimoli-sharqqa kengaytirdi. Bu davrida xon hokimiyatning mavjeyi oshdi, ichki vaziyat birmuncha yaxshilandi. Lekin undan keyin taxtda o'tigan Nodir Muhammadxon (1642-1645), Abdulazizzon (1645-1681) va Subxonqulixon (1681-1702) davrida mamlakatda siyosiy vaziyat yana izdan chiqdi. Bu xonlar mahalliy feodalarga va tashqi dushmanlarga qarshi to'xtovsiz urushlar Olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurashlarda hokimiyatning asosiy tayanchi din peshvolari edi. Shu sababli bu davrda yer maydonlari ommaviy ravishda diniy mahkamalar va yirik ulamolar (Jo'ybor xo'jalari kabilar) ixtiyoriga o'ta boshladi. Ivjamlakatda diniy mutaassiblik kuchaydi. Bu o'z navbatida duryoviy taraqqiyotni be'g'ar, davlat va jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilar edi.

Tinimsiz urushlar, haddan tashqari og'ir soliqlar, mahalliy hokimlarning bebosliklari ustiga teztez bo'lib turgan tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, hasharot bosishi) ham mamlakatning iqtisodiy ahvolini izdan chiqardi, xalqning ahvolini yanada nochorlashtirdi. XVIII asr boshlariga kelib ashtarkoniylar davlatidagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Bu sulola xonlari yirik saroy

amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamomila jobe bo'lib, ular xonlami taxtga ko'tarishar, taxtdan mahrum etishar, mamlakatdan quvg'in etishar yoki o'ldirishardi.

Ubaydullaxon (1702-1711) markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, mamlakatda hukm surayotgan siyosiy beboshliklarni tugatishga intilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor edi. Ubaydullaxonning bebosh Uzbek amirlarining iqtisodiy kuchini susaytirish, davlat xazinasini to'ldirish va mamlakatning moliyaviy alvolini yaxshilashga urinib o'tkazgan pul islohoti (1708-y.) siyosiy iqtisodiy vaziyatni yanada chigallashtirdi. Zarb etilgan past qiymatli mis pullar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, dokonlar yopilib, Buxoro shahrida katta qo'zg'olon ko'tarildi. U katta qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi siyosiy iqtisodiy vaziyat yaxshilamadi Natijada Ubaydullaxon o'ldirilib, taxtni ashtarxeniyalar sulolasini amaldagi so'nggi xoni Abulfayzxon egalladi. Uning hukmronligi davrida (1712-1747) niamlakatda qabiila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi. Abulfayzxon davrida markaziy hokimiyati O'z ahamiyatini yana yo'qota bordi. Mamlakat o'zini mustaqil hisoblovchi viloyatlarga bo'lina boshladi Ist amylakatni boshqarish mang'it urug'lari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va yirik zodagonlar orasida obro'ga ega boigan Muhammad Hakimbiy qo'liga o'ta boshladi. • Abulfayzxon nomigagina xon bo'lib turardi.

Asosiy hokimiyatni nufuzli amirlar Jayshan qalmiq, so'ngra qushbegi Abdullabiy, keyin Muhammad Hakimbiy otaliqlar boshqardilar.

Davlatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi. Balx Buxorodan ajralib ketdi, keyinchalik bu yerda goh ashtarxoniylardan Normuhammad avlodlari, goh har turli o'zbek shahzodalari hokimlik qilib turdilar. Badaxshonda Yorbek sulolasi hukmronligi qaror topdi. Xorazm Buxorodan tamomila mustaqil bo'lib oldi.

Buxoroda mang'it urug'idan boigan qudratli Muhammad Hakimbiy irodasi bo'shi, zaif Abulfayzxon zamonda otaliq edi. Shu tariqa, mamlakat bo'laklarga boiniib ketdi. Bundan foydalangan qalmiq va qozoqlar yetti yil mobaynida mamlakatning juda ko'plab vodiylarini, bog'-rog'larini poymol qildilar. Gullab-yashnab turgan joylar choiga aylandi. G'alla, meva, sabzavot mahsulotlari keskin kamayib ketdi.

2. Temuriylar tarixi davlat muzeysi haqida ma'lumot bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeysi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo'lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko'rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san'at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron - buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug'ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismidan iborat. «Tug'ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurining) tug'ilishi bilan bog'liq urf-odatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya'ni «Tog'rilik najotdir» degan shiori Oltin harfiar bilan yozib qo'yilgan. Shuningdek, bu qismida Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o'tkazayotgan kengashi aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o'tib kelayotganligi g'oyasi tasvirlangan.

3. Abdulla Qodiriy havoti va ijodi.

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasasi, o'zbek romanichiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904-06), rus-tuzem maktabida (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916-17) ta'lim Olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925-26) o'qigan. Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Ozq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnalni tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923-26). «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagib» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914-15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalyak Maxzumining xotira daftariidan», «Toshpo'lal tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalari muallifi. «O'tgan kunlar» (1924-26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi

yozuvchining ulkan mahoratini o'zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktyabrdan Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofotini laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlangan (1994).

2-BILET

I. Shaybonivlar davlatining tashkil topishi.

Tarixdan ma'lumki, XI-XVI asrlarda g'arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz, shimoli-sharqda Irtish daryosi va Balxash ko'ligacha, jamilda esa Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimlari oraliq'idagi yerlar Dashti Qipchoq deb yuritilgan. Bu hududda dastlab Jo'ji ulusi norai bilan Oltin O'rda xonligi tashkil etilgan.

XIV asr oxirlarida Oltin O'rda xonligi Amir Temur tomonidan tor-mor etilganidan so'ng parchalanib, bir necha xonliklarga bo'linib ketdi. Volga daryosining o'rta va quyi oqimlari Qozon va Ashtarkon (Hojitarxon) xonliklari, Qrim yarim orolida Turkiya ta'sirida bo'lgan Qrim xonligi vujudga keldi. Dashti Qipchoquning shaxriy qismida esa Oq O'rda tashkil topdi. Bu katta hududda qiyot, mang'it, do'mon, qushchi, o'rtachi, nayman, tuba, toyraas, jot, xitoy, uyg'ur, qorluq, ushuu (usuu), karlavut, ichki, ming, tan gut, qo'ng'iroq va boshqa qabilalar yashagan. Bu ulus O'zbeklar davlati, uning aholisi «o'zbeklar» deb atalgan.

Dashti Qipchoqning shaxriy qismi, ya'nı Oq Ordada shayboniylardan bo'lgan Abulxayrxon (1428-1468) tarqoq bo'lgan mayda xonliklami birlashtirib, katta davlatga asos soldi. Keyinchalik mang'it urug'lari ham Abulxayrxon qo'l ostiga birlashtirildi. Qozoq urug'lari XV asming 40yillarida Abulxayrxonga bo'y sunishdan bosh tortib Chu va Yettisuv vohasiga ko'chib ketdilar va keyinchalik Qozoq xonligiga asos soldilar (1465).

Dashti Qipchoqda siyosiy tafibusizliklar, katta yer egaları bilan dehqonlar va chorvadorlar o'tasida ichki ziddiyatlar kuchayishi natijasida davlat zaiflashib bordi. Ana shunday sharoitda hokimiyatni qo'liga olgan Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451 -yilda tug'ilgan, yoshlik yillarda Samarcand va Buxoro madrasalarida o'qigan) Dashti Qipchoqdagi qabilalarni birlashtirib, davlat hokimiyatini yanada mustahkamlaydi.

Amir Temur vorislari o'tasida olib borilgan to'xtovsiz feodal urushlar temuriylar davlatining kuchsizlanishiiga olib keldi va birin-ketin ular qaramidagi davlatlar va mulklar ajralib chiqib ketdi. Xorazmdan Astrolobgacha bo'lgan keng raasafadajoylashgan turkmanlar bir necha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ko'pincha o'zaro kelisha olmas edilar. Lekin ular qulay vaziyatdan foydalaniib Temuriylar davlatidau ajralib chiqdilar. Farg'onan vodiysi ham ajralib mustaqil davlat tashkil etdi. Bunda tashqari forsiy dehqon aholi joylashgan Hisor va Badaxshon ham mustaqil davlatga eylandi. Movarounnahrda temuriy hukmendorlarning o'mini

Abulxayrxonning nevarasi Shayboniy asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Temuriylar davlatining zaiflashganligi, tarqoqlikning kuchayishi va hokimlikka da'vogarlarning o'zaro to'xtovsiz urushlari shayboniylarning Turkistonga bujumi uchun zanur shart-sharoitlar yamtdi. Shayboniyxon XV asr oxirlarida Turkistonga bir necha bor yurishlar qilib O'tror, Sabron, Yassi (Turkiston) shaharlarini bosib okdi.

U 1499-1507-yillarda Buxoro, Samarcand, Toshkent, Shohruhiya, Farg'ona, Qunduz, Xorazm, Balx va Hirotni ishg'ol qilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hokimiyatini o'matdi.

Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmarchi o'zbeklar XVI asr boshlarida

Movarounnalr va Xurosomi egalab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydilar va bu ulkan hududda o'zlarining markazlashgan davlatiga asos soldilar. Bu davlat poytaxti avval Samarcandda bo'lgan bo'lsa, XVI asr o'taluridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Shundan keyin bu davlat Buxoro xonligi deb ham atala boshladi. Butun XVI asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta abaniyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik Shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq o'zining azalay qon-qarindoshlari bilan qo'shilib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi.

Tarixiy mambalar va tadqiqotlarda XV asrining 20-yillarida Qipchoq dashtining Sharqiy yerlarida tashkil topgan, qirq yillard ziyodroq hukm surgan Abulxayrxon (1428-1468) hamda Movarounnahrda tashkil topgan Muhammad Sheyboniyxon (1450-1510) davlatlarmu ko'chmanchi o'zbeklar davlati deb atashgan. Ammo bu unchalik to'g'ri emas, chunki ushbu davlatlarning asosiy aholisi mol chorvachiligi bilan shug'ullangani holda, ular tarkibiga, shuningdek, Sirdaryoning quyi qismida, qisman Xorazm vohasining chekkalarida hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ul-lanuvchi urug' va qabilalar ham kirgan.

2. Minorai Kalon me'moriy yodgorligi haqida ma'lumot bering

Minorai Kalon (Katta Minora) me'morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda amiri Arslon Bug'roxon tomonidan buniyod etilgan. Minorai Kalonning buniyod etilishi o'rta asrlarning rivojlangan davriga (XII asr), aniqrog'i, 1127-yilga to'g'ri keladi. Me'moriy obidanining qurilishida tosh, maxsus qiz qotisumasidan, chorsu pishiq g'ishtidan, loy, taxta va boshqa bir qator ashiyolardan foydalauilgan. Uning dizayni haqida gapiradigan bo'lsak, balandligi 50 metr, uylanma eni 9 metr. Minoraning salla shaklidagi yuqori qismi - g'isht o'ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O'qsimon tirkak o'nesida Arslonxonning nomi hamda binokor ustuning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g'ishtim sylanma zinapoya bo'lib, mezanaga olib chiqadi. Kursisi qirrador, tanasi g'o'lasimon, tepasi gumbazli davra qafasako'shk bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasi dagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 aylanma zinapoya orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai Kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsu pishiq g'ishti (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g'ishti o'miga qarab turli shakilda, simi silliq pardozlangan. Ustmeust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqlari g'ishtin dandamalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy-diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqelaming har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to'kiib ketgan). Me'moriy obidanining ushbu haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot pishiq g'ishtidan Sharq an'analarining naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Me'moriy inshootning 0' ziga xos tomoni shundaki, u Buxoro shahrida qad ko'targan boshqa inshootlardan o'zining me'moriy yechimi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, me'moriy inshoot balandligi jihatidan ham boshqa me'moriy inshootlardan ajralib turgan. Minora o'z davrida muazzin uchun azon aytishjoyi vazifasini o'tagan bo'lsa, harbiy maqsadlarda esa kuzatuv obyekti ham bo'lganligi tarixiy mambalarda saqlanib qolgan. Minoraning bugungi kungacha bo'lgan holatlari haqida gapiradigan bo'lsak, tanasi va muqurnasları ta'mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan o'chib ta'mirlangan (1960). Buxoro shahrinning 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ham ta'mirlash ishlari olib borildi (1997). Bundan tashqari, me'moriy inshoot atroflari obod etilib, ko'kalamzorlashtirilgan. Me'moriy obidaga xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, YUNESKO tushkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kirtildi. 1993-yilda Buxoro shahrinning tarixiy markazi (Isessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati" ga kiritilgan.

3. Abdulla Avloniy hayoti va iiodi.

Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamoniining ma'rifatli va chiqur bilim solibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. Oczi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi.

3-BILET

1. Spartak qo'zg' 010ni.

Mil. avv. 74-yilda boshlangan Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg' oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo'zg'olnlardan biri bo'ldi. Rum armiyasida xizmat qilishdan bosh

tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan frakiyalik qil Spartak qullarni qo'zg'olon ko'tarishga undadi. Ammo kundir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdoirlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular Vezuviy tog'idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo'shila boshladgi va qo'zg'olon ko'targanlar safi kengaya bordi. Ko'p o'tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi. Qo'zg'olon ko'targan qullarni tor-mor etishgajo'natilgan uch ming kishilik qo'shni Vezuviy tog'lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshiluxdi.

Spartak kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to'qib, ko'rinnmaydigan tarafdan cho'qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zar'ba bergen Spartak ulami tor-mor etdi. Ammo ko'p o'tmay qo'zg'olon ko'targanlar orasida ixtilos paydo bo'ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, O'z yurtiariga qaytishni afzal bildilar. Ko'pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishiga va quidorlardan qasos olishga ahd qilishdi. Spartakka qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligidagi ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro'y bergen hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o'zi esa ana shuji angda halok bo'idi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim -Kapuya oralig'idagi yo'l bo'yliuridagi xochiarga mixlab tashlandi.

2. Tillakori madrasasi haqida ma'lumot berine.

Samarqandning Registon maydonida joylashgan Tillakori madrasasi Yalangto'shibiy Bahodir tomonidan buniyod etilgan. Me'moriy obidanı buniyod etirgan shaxs haqida gapiradigan bo'lsak, Yalangto'shibiy Bahodir Saidqul o'gli, Yalangto'shibiy Otaliq (1576-yil Nurota 1656-yil Samarqand) Ashtarkoniylar davrida olchin qabilasidan bo'lgan harbiy-mulkdor zedagonlarning yirik vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Yalangto'shibriyning buyrug'i bilan ikkinchi yirik madrasa Tillakori 1646-1660-yillar mobaynida qurilgan. Uning qurilishida pishgan va xom g'isht, loy, yog'och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalatiilgan. Me'moriy obidaning dizayni: peshtoq chucur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavallli hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezana lar egallagan. Madrasa xonaqohi (10,8x 10,8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Uning gumbazi oxiriga yetkazilmagan. Xonaqoh to'riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O'z devrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonimi oldi ravoqli, gumbaz tomlı ayvon (yo' lakklar) egallagan. Peshtoq ravog'idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659-1660-yiliarda bajarilganligi yozilgan. Bosh tarzidagi bezak inavzularning boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtoq qanosı va tokchasiidagi iroqi kashtam eslatadigan bezaklar, bo'fima yozuvilar O'ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilami to'ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo'llashgan. Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg'ish yaproqchilar va feriza poyalar aks ettiligan. Xonaqoh izonasi koshin namoyon, devori, gumbazi va bag'ali kundai uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravog'i va bag'ali muqimmas kosachalar bilan to'ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur'on oyatlaridan olingan bo'ltma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog' och o'yinakorligida pardozlangan. Hovli sahnasi (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobodoniariga panjuralar ishlangan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilib, koshinlarning qadimiy rangini topish yo'lida tadqiqot ishlari olib borilgan Inshootning uslubiga keldigan bo'lsak, Sharq me'morchiligidagi O'zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon, "Chor" uslubida qurilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, dastlab u Yalangto'shibiy Bahodirning kichik maqbarasi nomi bilan atalganligiga qaramay xalq orasida Tillakori nomi bilan mashhur bo'lgan. Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot mamlakatimiz mustaqiligi davrida va undan oldin ham bir necha bor ta'mirlangan. Jumladan hozirgi kunda me'moriy inshoot muzey vazifasini o'tamoqda. Me'moriy inshoot ko'pgina xalqaro sayyohlarning e'tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

3. AbduraufFitrat havoti va faoliyatি.

Abdurasuf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886 yil Buxoroda ziyoli oиласида туг'илди. 1909-1913 yillardа esa адаби Туркияда, Истанбул доилғумунда таҳсил олади. У yerda замондoshлари bilan биргаликда «Buxoro ta'limi (umumiyy) маориф jamiyat»ни тузади. Fitrat 1919-20 yillardа Ағғонистон hukumatining Toshkentdagи vakolatxonасида tarjimon, «Turon», «Buxoroi sharif», «Oina» каби ko'pgina gazeta va journalларни ташкил etishda bosh-qosh bo' ddi, Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishida shing'ullangan.

«Chig'atoj gurungi» tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro xalq

Respublikasining bir qator rahbar lavozimларида ishladi. Buxoro amiriiga berilgan ultimatum ham uning qaluni bilan yozildi. 1923-1924 yillarda Fitrat ma'lum muddat Leningradda, so'ngra Moskvada yashadi. Unga O'zbek ziyolilarи ichida birinchilardan bo'lib professor ilmiy imroni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqi mактаби ochdi. O' smirlik yillari u Mijmar («cho'g'don») taxallusi bilan, so'ngra Fitrat («tug'ma iste'dod») taxallusi bilan ijod qildi. Fitratning «Muxtasar islam tarixi» (1915), «Ro'zalar», «Shaytonning tangriga isyonи» (1924), «Qiyomat» каби asarlari diniy mavzuдан yozilgan. Qomusiy bilim va baduy iste' dod egasi bo'lgan Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda otib tashlangan.

4-BILET

I. Birinchi iahon urushi va oqibatlari

XX asming boshlarida jahondagi yirik davlatlarning mustamlakalarga ega bo'lish masalasida o'zaro munosabatlari keskin ko'rinish oldi. Birinchi iahon urushida Rossiya, Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq — Antanta tomonida turib unishda qatnashdi. Rossiya imperiyasining Birinchi iahon urushida ishtirok etishi uni iqtisodiy jihatdan yomon ahvcelga solib qo'ydi. Busiz ham G'arbiy Yevropa davlatlaridan taraqqiyoti ancha orqada qolib ketgan Rossiya umish tufayli yanada nochor ahvolga tushib qoldi Natijada podsho hukumati o'z mustamlakalaridan, jumladan, Turkiston o'lkasidan ham yanada ko'proq foyda olish uchun ularning tabiiy boyliklarini ko'proq O'zlashtirishga jonjalidi bilan kirishdi. Mahalliy aholidan esa arzon mehnat kuchi sifatida foydalananishga harakat qildi. Bu umish tufayli Rossiyada ommaviy safarbarlik e'lon qilindi. Safarbarlik Rossiyaning mustamlakalariga ham, jumladan, Turkistonga ham tegishli edi. Unga ko'ra Turkiston o'lkasidan urushga 19 yoshдан 43 yoshgacha bo'lgan aholining yevropalik qismi vakillari chaqirildi. Aynan hosillarni yig'ib olish vaqtiga to'g'ri kelgan bu chaqiruv Turkiston o'lkasidagi Rossiya gubernularidan ko'Chirib keltirilganlarning oilalari uchun qiyinchilik tug'dirdi. asosiy ishchi kuchi bo'lgan erkaklarning umishga olinishi oilanining asosiy boqruchisidan ajralishiga va ularning yomon ahvolga tushishiga sabab bo'ldi. 1914-yilda

Turkistonda «savqulodda muhofaza holati» deb e'lon qilinishi natijasida mustamlaka hukumatning mahalliy aholi ustidan nazorat vajazo choralar kuchaydi. Turkiston aholisi umishga safarbarlik e'lon qilinishiga qarshi chiqib, «savqulodda holat» tartiblariga rivoja etmay qo'ydilar. Bunday tartiblarni burzganlar 50 so'ngacha jarima to'laydigan yoki 3 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldi. Busiz ham aholi turmush sharoitining yomonligi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi, narx-navoning oshib ketganligi o'lkada norozilik kayffiyatining yanada oshishiga haunda ommaviy ko'rimishdagи qo'zg' olonlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Urush davomida qishloq xo'jaligi vayron bo'ldi, ekin maydonlari qisqarib ketdi, qishloqda ishchi kuchlar yetishmas edi. Temiryo'lda boshboshdoqlik hukmron bo'lib, amalda esa u harbiy davri yuklumi tashlit edi. Butun xo'jalik aloqalari izdan chiqqan. Rossiya iqtisodiyoti urush va bunday ko'lamdagи harbiy harakatlar uchun zaif ekanligi ayon bo'ldi. Davlat moliyasi inqirozga yuz tutdi. Maorifga, madaniyatni rivojlantirishga xarajatlar kamayib ketdi va mayda kredit deyarli qolmadи. Faqat urushning bir yili davomida soliqlar miqdori 50 foizga ko'paydi. Talafotlar O'mini te'ldirish va harbiy xarajatlar O'shini qoplash maqsadida qo'shimcha mablag'lar izlar ekan, chot hukumati o'zi uchun ancha odatiy va eng oson bo'lgan yo'ldan, ya'ni O'z mustamlaka o'lkalarini talashdan, urush olib borish uchun safl-xarajatlarning katta qismini o'z mustamlakalari, jumladan, Turkiston o'lkasi gardaniga yu'klash yo'lidan bordi. 1915-yildan boshlab, Turkistonda paxtaga o'zgartmas davlat narxlari joriy etildi, narxlар unumiy O'shi sharoitida bu narx paxtakorlarning hosil yetishtirishdagи

xarajatlarini qoplay olmas edi

2. Ulue 'bek rasadxonasi haqida ma 'lumot berine.

Rasadxona Mirzo Ulug'bek tashabbusi va homiyligida buniyod etilgan. Mirzo Ulug'bek Amir Temurning kerja o'g'li Shohruhning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniysha shahrida tug'ilgan. U 1409-yil otasi Shohruhning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan. Rasadxona rivojlangan O'rta asrlarning so'nggi davrida, XV asr me'morchiligining nodir namumalaridan biri bo'lib, Mirzo Ulug'bek farmoyishi bilan 1424-1429-yillarda buniyod etilgan. Uning geografik joyimi G'iyosiddin Jamshid tanlagan bo'lib, Samarqanddagi Ko'hak (Cho'ponota) tepaligida. Obirahmat anhori bo'yida buniyod etilgan. Ulug'bek rasadxonasi qurilishida xom va pishgan g'isht, loy, taxta va shu kabi ashayolardan foydalaniylgan. Rasadxona ulkan silindr shaklida buniyod etilgan; ayrim qo'lyozmalarga ko'ra, balandligi 31 m dan iborat 3 qavatlari qilib qurilgan. Ulug'bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari asosida topildi. Xususan, bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g'isht bo'lgan aylamma devor borligi va uning markazida qo'shaloq yoydan iborat bosh qurilmaning qoldigi mayjud bo'lganligi aniqlangan. Uning katta zallari, turli kattakichik xonalari bo'lgan. Boburning yozilishicha, Ulug'bek rasadxonaning sirti koslin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Ulug'bek rasadxonasi me'morchilikning O'rta ziga xos, teng diametrali yumaloq ushibida buniyod etilgan. Ulardan eng asosiyasi radiusi 40,2 m li qo'shaloq yoydan iborat kvadrat qurilma hisoblanadi. Kvadratning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimaliy tomonda yer sathidan 30 m Cha balanddajoylashgan. Asbob aylamasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to'g'ri keladi. Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari — ekvator va ekleptika orasidagi burchakni o'lchash, yillik protsessiya doimiyisini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergen. Mirzo Ulug'bekning eng yirik astronomik asari "Ziji jadidi Ko'ragoniy" ham rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug'bek taklifi bilan yig'ilgan mashhur olimlar G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog'liq. Rasadxona o'z davrida yirik astronomik kuzatuv Amajmuasi vazifasini o'tagan. Unda mayjud bo'lgan asbob-uskunalar yordamida quyosh, oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan. Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo'lsak, mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizdagi boshqa me'moriy obidalar singari ta'mortalab qismlari qayta tiklandi.

3. Naimiddin Kubro havoti va faoliyati.

Najmiddin Kubro (1145—1221) — ulug' shayx, tasav vufining taniqli vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi. Uning taxallusi "dinning ulug' yulduzi" ma'nosini beradi. Kubroning karomat ko'rsatish, voqealarni oldindan bilishi, o'tkir nazari bilan ta'sir eta olish xislatiga ega inson bo'lganligi haqida rivoyatlar tarqalgan. Keksa shayx va donishmand insontining mo'g'ullarga qarshi jangdagi qahramonligi, jasorati avlodlarga ibrat bo'lib qoldi. Kubro shaxsi va uning merosi O'zbekistonda mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi. 1995yilda O'zbekistonda Najmiddin Kubro o'tavalludining 850 yilligi nishoniindi. Mashhur shayx, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashnafas shoir Najmiddin Kubro Xiva yaqinidagi hozirgi Sayot qishlog'ida tug'ilgan. Uning to'liq ismi - Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy. «Shayxi valiytarosh» - «Avliyolar yetishtiradigan shayx» nomi bilan shuhrat qozongan bu ulug' inson tasavvufdagagi mashhur kubraviya tariqatiga asos solgan. Bu tariqat ahllari xufiya zikrni targ'ib etganlar. Kubraviya ta'limoti asosan Markaziy Osiyo va qisman Eronga tarqalgan. Najmiddin Kubroning o'nga yaqin asarlar fanga mal'um. Uning, ayniqsa, «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalob» («Jamol xushbo'ytilklari va jalolning kashfi»), «Risolat ulhoif ul-hoim an lavinat il-loim» («QO'rquvchi ovvoralar va malomat etgувчи malomatiylar haqidasi»), «Tafsir», «Sharh us-sunnah val-masolikh» («Sunna va ezguliklar sharhi») kitoblari mashhur. Kubro o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. Faqat boshlovchi so'fylar uchun qo'llanna

sifatida yaratilgan «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi haqida») asari va nuboiylarini forsiyda bitgan

5-BILET

1. ikkinchi jahon urushi va oqibatlari

Ikkinchli jahon urushi 1939-yilning 1-sentabridan 1945-yilning 2-sentabrigacha, ya'ni 6 yil davom etdi. Bu urush dunyoning 61 davlatini o'z donniga tondi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Armiya saflariga jami 110 min. kisbi safarbar etildi.

Ikkinchli jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko'p talafot va kaita vayrongarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi. Chunonchi, maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha, bu urushda 65—67 min. kishi halok bo'lgan. Ularning yarmi tinch aholi edi.

Vayrongarchilikdan ko'riganzalarva umsh xarajati birligida 4 trillion dollarni tashkil etdi. Bu urush ayni paytda eng dahshatli quroller ishlataligan urush ham edi. Urush oxirida hatto raketa quroli hamda atom bombasi yaratildi va ular insoniyatga qarshi ishlataldi. Fashizmning dumyoga hukmon bo'lishga intilishi va insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo'lgan kufati antifashistik kuchlami birlashtirdi. Erksevar xalqlar birligida fashizmga qarshi kurashdilar. Va, niyoyat, g'alaba ham qozondilar. Biroq bu g'alaba-ga osonlikcha erishilmadi.

Avalgi mavzuda qayd etilgandek, 1939-yilning 1-sentabrida Germaniya Polshaga hujum qildi. Bungajavoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniya qarshi urush e'lon qildilar va shu tunda urush boshlanib ketdi. Polsha armiyasi kam sonli va yaxshi quronlanmagan edi. Shunday bo'ls-e-da, u jasorat bilan qarshilik ko'sratdi. Lekin kuchlar teng bo'lmagani uchun Polsha armiyasi ikki hafta ichida tor-mor etildi. 17-sentabr kuni Polsha hukumati Prezident Ridz Smigli boshchiligidagi mamlakatni tashlabt chet elga chiqib ketdi.

Xuddi shu kuni Germaniya bilan kelishuvga binoan sovetlarning 209 mingdan ortiq jangchi va zabitlari Polshaga bostirib kirdi hamda 28-sentabr kuni Moskvada Sovet davlati va Germaniya o'ttasida «Do'stlik va chegara to'g'risida» shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, mustaqil Polsha davlati tugatildi va bo'lib olindi. Ayni paytda G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorusiya Sovet davlatiga berildi. Polshaning Germaniya bilan chegaradosh bo'lgan yerlari Germaniya-ga o'tdi. U yerda nemis general-gubernatorligi tuzildi. 1939-yilning 28-sentabrida imzolangan sovet-german shartnomasiga kofra, sovet hukumati Boltiqbo'yini respublikalaridan Sovetlar armiyasini bu respublikalarda joy-lashtirish va o'zaro yordam to'g'risida shamma imzolashni talab eidi. Boltiqbo'yini respublikalarining bu talabga bo'yusunmaslikka iloqlari y'e'A edi

30-noyabr kuni sovet armiyasi Finlandiyaga hujum qildi. Bu qilmishi uchun Soviet davlati Millatlar Ligasidan chiqarildi. (Millatlar Ligasiga 1934-vilda qabul qilingan edi.)

Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi umsh e'lon qilgan bo'lsalar-da, biroq faol harbiy harakatlar boshlamadilar. Germaniya armiyasining asosiy kuchlari Polsha bilan bend bo'lib qolgan paytda bunday imkoniyat ber edi. Buyuk Britaniya va Fransiyaning bu pozitsiyasi 1940-yilning bahorigacha davom etdi. Ularning faolsizligi urush tarixiga «g'alati urush» nomi bilan kirdi. Buyuk Britaniya va Fransiya o'zlarining qudratli harbiy-dengiz flotlari kuchi bilan Germaniyani blokada iskanjasiga olishni rejalashtirgan edilar. Ayni paytda ular Fransiya — Germaniya chegarasida Fransiya bunyod etgan kuchli mudotaa inshootlari Germanyaning g'arbgaga hujumga o'tishiga yo'l qo'ymaydi, bordi-yu hujumga o'tganda ham, uni yorib o'ta olmaydi, deb ishondilar.

Bu orada Soviet qo'shinlari Finlandiya armiyasini ma'glubiyatga uchratdi. 1940-yil 12-martda sovet-fin tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga kofra, Kareliya bo'g'azi Viborg shahri bilan birligida Soviet davlatiga o'tdi. Ap-rej oyida Germaniya armiyasi G'arbiy frontda hujunga o'tdi. 9-aprel kuni Daniya va Norvegiya bosib olindi. 14-may kuni Gollandiya, 28-may kuni e'sy Belgiya taslim bo'ldi. Shimoliy Fransiyada joylashgan ingliz-fransuz harbiy qismlari qurshovga tushib qoldi. Biroq ularning katta qismi ko'p talafotlar bilan Buyuk Britaniyaga o'tib ketishga muvaffiq bo'ldi. Oz ittifoqchisi Germanyaning birin-ketin zafarli g'alabalaridan rulilangan Italiya 10-iyun kuni Fransiya va Buyuk Britaniyaga qarshi urushga kirdi. Qisqa muddat ichida Fransiya qo'shining katta qismi tot-mor etildi. 14-iyunda nemislar Parijni egalladi. 22 iyun kuni

Kompen o'rmonida Germaniya va Fransiya o'tasida yarash bitimi imzolandi. 25-iyun kuni shunday yarash bitimi Italiya bilan Fransiya o'nasida ham imzolandi. Bu bitimlarga, ko'ra Fransiya harbiy harakatlarni to'xtatdi. Armiya va flotni qurotsizlantirdi. Pol Reyno hukumatisti isteTo berdi. Germaniya Fransiya hududining uchidan ikki qismini okkupatsiya qildi. Parij shahri ham okkupatsiya hududi tarkibida edi. Okkupatsiya qilinmagan liufudda marshal Peten boshchiligidagi qo'g'irchoq hukumat tuzildi va uncha katta bo'limgan Vishi shahrida joylashdi hamda Peten hukumati Germaniya bilan hamkorlik qilish majburiyatini oldi.

Dastlab Fransiyaning barcha yirik siyosiy arboblari va mustamJakalar-dagi ma'muriyatlar Peten hukumatini tan olishdi. Faqat u davrda hali mashhur bo'limgan general de Goll yarash bitimini ham, Peten hukumatini ham tan olmadidi. U Buyuk Britaniyaga jo'nab ketdi. U yerda «Erkin Fransiya* harakatini tuzdi va barcha vatanparvar kuchlarni Germaniyaga qarshi kurashga chaqirdi.

2. Toshkentdae Ko 'kaldosh madrasasi haqida ma 'lumot berine.

Ko'kaldosh madrasasi — O'zbekistonning Toshkent shahridagi me'morlik yodgorlik. Shahar markazining Chorsu maydonida joylashgan. Qulobo ko'kaldosh qudrig'an (1551—1575). Madrasa (umumiyligi 62, 7X44,9 metr) bosh tarzi janubga qaragan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarning tomi o'zaro kesishgan ravvoqlar ustiga o'matilgan gumbazlardan iberat. Miyonsaroy 7 gumbazli. Chorsu hovlisi keng (38X26,9 metr), hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining atrofidagi hujralar 38 ta bo'lib, darsxona va masjid bilan o'zaro bog'langan. Madrasa dastlab 3 qavatlari bo'lgan. Me'morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Peshtoqi bilan birga balandligi 19,73 metr bo'lib, sirkor parchin va girih naqshlar bilan bezatilgan. Bosh tarzining 2 burchagidagi guldastalar tepasi qafasa bilan yakunlangan. Ko'kaldosh madrasasi XVIII asr boshlarida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy ombori sifatida foydalilanigan. 1886 va 1946-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo'lgan. Bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan. Ko'kaldosh madrasasi: hujralaridan birida Furqat (1889—1891) va Hamza (1910—1911) istiqomat qilishgan, shoir Hislat va boshqalar tahsil Olgan. Madrasaning old tomoniga an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini tu'minlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofini obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Ko'kaldosh madrasasi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarmifida (1991-yildan). Binoda shu idoraga qarashli o'rta maxsus islam bilim yunti joylashgan.

3. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustozi Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi. Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari Hippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyining (865—925) asarlarini puxta o'rganadi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansumi davolab tuzatgach, sononiyalarning saroy kutub xonasidan foydalananishga ruxsat oladi. Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. U 1037-yilda vafot etadi va Hamadonda dafni etiladi. Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jiddli "Al-qonun-fittib"-("Tib qo'qunlari") nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmoqlarning xususiyatlari, parhez, insom salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning "Al-qonun fit-tib"- asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalananigan.

6-BILET

I. O 'zbekiston SSRning tashkil topishi.

O'rta Osiyoda milliy-hududi chegaralanish o'tkazilishi natijasida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tugatilib, uning hududi yangi tuzilgan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O'zbekiston SSR tarkibida, 1929-yildan Tojikiston SSR), shuningdek, Qoraqirg'iz avtonom viloyati (Rossiya SFSR tarkibida; Qirg'iziston SSR), Qoraqalpoq avtonom viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida; keyinchalik Qoraqalpog'iston ASSR, 1936-yildan O'zbekiston SSR tarkibida) tarkibiga kiritildi.

Umumo'zbek sovetlarining Buxoroda bo'lган birinchi qurultoyi (1925-yil 13-17 fevral)da „O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to'g'risida deklaratsiya" qabul qilindi. Qumltoyda respublikaning oliy organlari: O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (O'zbekiston SSR MIK) va O'zbekiston SSR Xalq Komissarları Soveti (O'zbekiston SSR XKS tuzilgan). O'zbekiston SSR Butunittifoq sovetlarining 3-s'yездida (1925-yil 13-may)da SSRI tarkibiga kiritilgan. 1927-1937-, 1978-yillarda O'zbekiston SSR konstitutsiyalari qabul qilingan. 1920-yillar Respublikadagi dehqonlarni g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan tashkilotlardan biri „Qo'schi" ittifoqi bo'lган (1920—33-yillarda faoliyat ko'rsatgan). 1924yilda 200 ming kishini o'ziga birlashtirgan bu ittifoq ham asta-sekin bolshevikdarning qishloqdagagi mustabid siyosati targ'ibotchisiga aylangan. Qishloq kambag'allarining eng qashshoq qismini o'zida birlashtirgan bu tashkilot kollektivlashtirish (jamoalashtirish) va qulqolashtirish" davrida salbiy rol o'ynadi.

Xalqaro xotin-qizlar kunida paranjilami yoqib yuborish marosimi. Andijon, 1927-yil. O'zbekiston SSRda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan „sotsialistik tajriba" mahalliy xalq tomonidan norozilik bilan qarshi olindi. Sovet hokimiyatining dastlabki 10 yilliklarida milliy rahbar xodimlar va ziyorolar tomonidan markazning zo'ravonligiga qarshi ochiq tanqidiy fikrlar aytilgan. Muxolifat ayrim davlat va jamoat arbobiari, yozuvchilar, shoirlar, maorif xodimlari va huquqshunoslarni o'zaro birlashtirgan edi.

1925—29-yillarda O'zbekistonda yer-suv islohoti amalga oshirildi. Bu islohot joylarda shafisharoitlar va tayyorgarlik darajasiqa qarab uch bosqichda o'tkazildi. Keyinchalik qis shloq xojaligini kollektivlashtirish amalga oshirilib, kolxoz va sovxozi tuzildi. Biroq sho'rolar hokimiyati o'ziga to'q dehqon xo'jaliklarini „qulqoq" („mushtumzo?") sifatida tugatish siyosatini olib borgan. 1930-yil lar—

Sovet rejimi dastavval navjud tuzungaga muxolifatda turganlarga qarshi repressiya siyosatini amalga oshirg'an bo'lsa, 30-yillardan boshlab o'z xalqiga nisbatan osmmaviy terrorni qo'lladi. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshida O'zbekiston SSRda „O'n sakkizlar guruhi", „inoq'onmovchilik", „qosimovchilik", „bedriddinovchilik", „milliy ittihodchilar", „narkoempros ishi" kabi siyosiy ishlar to'qilishi va Munavvarqori boshchiligidagi milliy ziyolilaming qamoqqa olinishi natijasida ko'plab o'zbek ziyolilari qatag'on qilindi. 1931 -yil aprelda Moskvada bo'lib o'tgan sud majlisidan keyin Munavvarqori boshchiligidagi 15 kishi otib tashlandi, qolgan 70 kishi esa uzoq muddatlari qamoq jazosiga hukm qilindi.

2. Ichanaal 'a me 'moriv vodgorligi.

Ichan qal'a Xivaning ichki qal'a qismidir. U Dishan qal'adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal'adan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'tinadi. Ichan qal'aga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirilgan. Ichan qal'aning yaratilish tarixi uch davrga bo'linadi: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar), XVIXVII asrlardagi tiklanish (Amishaxon hanimomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Ko'jamberdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686-1688-yillar), XVIII-XX asrlardagi tiklanish. Uchinchi davrda mahalliy me'morchilik an' analari asoslari masjidi, madrasa, tim va toqlar qurilgan. Ota va Polvon darvozalari orusida katta yo'l o'tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806-1825-yillar), Olloqulixon (1825-1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845-1855-yillar) bu yerda qurilish avj olib ketgan. Muhibbulla saroy, madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshihovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo. Ichan qal'a qurilishida

Munayvarqori, Abdurashidxonov Munayvar qori (1878, Toshkent — 1931 23.4. Moskva) — O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'lboschchisi, 20-asr o'zbek millim mat-buoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilochilaridan biri, adib va sho'r. Toshkentning Shayxontohur dahasidagi Darxen mahallasida ziyoli oиласидаги туг'ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li mudarris, onasi Xosi-yat otin Xouxo'ja Shorahimxo'ja mudarris qizi otinoyi bo'lgan U okiada uchinchi o'gil bo'lib, katta akalani A'zamxon (1872—1919) va Muslimxon (1875—1954) muallim bo'lishgan. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta'limtarbiyani onasidan Olgan. So'ng o'z davritining mashhur o'qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tejvidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. 1885—90 yillarda Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil Olgan, amma tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, imomlik va muallimlik bilan shug'ullanган. Eshonqılık dodxoh madrasasida tahsilni davom ettirgan. 1901 yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu muktablar uchun maxsus o'quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1904 yildan ijtimoiyiyosiy, madaniy xayotga aralashish boshlagan. 1906 yildan "O'rta Osiyonining umrguzorligi, taraqqiy", "Taraqqiy" gaz.larida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gaz.ni tashkil etgan. "Shuhrat" (1907), "Tujjor" (1907), "Osiyo" (1908) gaz.larini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So'ng "Sadoyi Turkissxon" (1914—15) gaz.da mas'ul muharrir muovimi, "Al-isloh" jur. (1915—17)da maxfiy muharrir, "Najot" va "Kengash" (1917) gaz.larida mas'ul muharrir. M. turli jamiyat va uyushmlar tashkilotchisi. U "Jamiyat Imodiya" (1909), "Turon" (1913), "Turkiston kutubxonasi" (1914), "Umid" (1914), "Maktab" (1914), "Ko'mak" (1921) jamiyat, tashkilot, shirkat va uyushmlarida muassis, muovim, rais, a'zo.

Sho'rolar hukumati davrida Xalq dorilfumuni sho'rosining raisi, Turkiston Maorif xalq komissarligi turk sho' basuning ish yurituvchisi (1918), Toshkent shahri maorif noziri, Sharq xalqlari s'yezdi (1920, Boku) delegata va hay'ati a'zosi. BXSR Maorif nozrligi vaqfbo'limi boshlig'i (1920—21), Toshkent shahri ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri (1921), Akademmarkaz raisi (1922), Navoiy nomidagi məktəb, Narimov nomidagi ped. texnikumi, ayollar ped. intida müallim (1923 — 25), Samarqand shahri muzeyida ilmiy xodim, O'zbekiston osori-atiqalarini saqlash qo'mitasining ToshkentFarg'onan bo'limida mas'ul kotib (1927-28).

M. bir qancha darslik muallifidir. Uning "Alibi avval" (1907), "Adib ussoniy" (1907), "Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid" (1911), "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya" (1912), "Yer yuzi" (1916 17), 4 qismdan iborat "O'zbekcha til sabokligi" (Shorasul Zummun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925—26, 4qisimi musodara qilingan) darsliklari bir necha marja chop etilgan. 1914 yilda taraqqiyawar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab, "Sabzavor" nomi bilan nashr etgan.

20-bilet

1. BMTning tashkil topishi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilning 24-oktabrda tuzildi. Antifashist koalitsiya davlatlari urushdan keyingi dunyo tuzilishi tarmoyillari to'g'risi dagi o'z qarashlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavida bayon qildilar. BMT Ustavi ko'plab xalqlar kuchasining mazumumiga aylangan va Yer yuzidagi barcha xalqlarning tinchlik va tenglikda yashash tarmoyillari bo'lgan umuminsoniy qadriyatlarini e'lon qildi. Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy o'zolari hisoblanadi. Bugungu kunda 193 ta davlat BMTga a'zo, 2 ta davlat Vatikan va Falasatin kuzatuvchi-davlat maqomini Olgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlari quyidagi-lar ekanligi belgilab qo'yildi: - butun dunyoda tinchlikni ta' minlash;

- dunyo xalqlari o'nasida do'stlik munosabatlari rivojlem-tirish;
- dunyoda ocharchilik, kasallik va savodsizlikni tugatish borasida birlgilikda harakat qilish;
- ekologiya halokatining oldini olish;
- insen huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarashni rag'batlantirish. BMT shtab kvartirasi (domiy ish o'mi) AQShning Nyu-York shahrida joylashgan. BMTga Bosh kotib rahbarlik qiladi. Dunyoning qaysi bir burchagida bo'lmasin, umumiyligi tinchlikni xavf ostiga qo'yadigan vaziyat yuzaga kelsa, BMT uni muhokama qiladi va tinchlikni saqlab qolish uchun zarur choralarini ko'radi. Hozirgi kunda BMT bosh kotibi Antoniu Guterresh

2. Sherdor madrasasi haqida ma'lumot berine.

Inshooit Yalangto'shibiy Bahodir tomonidan buniyod etilgan. Sherdor madrasasi Inomqulixon hukumronligi davrida, 1619-1636-yillar oraliq'ida buniyod etilgan. Me'moriy obidaning qurilishida bir qator ashyolar ishlatalgan, shulardan: turli xil o' Ichamdag'i g'ishtlar, loy, yog' och, tosh, maxsus "qir" qotishmasi va shunga o'xshash boshqa ko'plab ashyolardan keng foydalaminigan Madrasaning dizayni, ichki va tashqi ko'rinishi: Sherdor madrasasining koshiulari va bezaklari faqat o' zigagina xos, betakrordir. Madrasa tarhi to'rtburchak, 2 qavatlari bo'lgan. Bosh tarzimining 2 qavotida qovurg'ali gumbaz va minoralar joylashgan. Binoning serhashamligi shu peshtoqida, peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatlari hujralar (54 ta) va oldi ravvoqli ayvon bo'lgan. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o'tagan. 1960-1964-yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan. Shuningdek, Sherdor madrasasining Peshtoq ravog'i tepasi diqqatga sazovor: qizg'ish zarhal sher oq olumi qurmoqda. Qiyosh bodomqovoq, qiyiq ko' zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli" yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa hovlisi va undagi hujralar ham o'z me'moriy yechimlari bilan Ulug'bek madrasasidan farq qiladi. Sherdor madrasasining devorlarida uni qurban usta-me'mor Abdul Jabboring va me'morchilik bezaklarini yaratgan mohir usta Muhammad Abboslarning nomlari abadiy muhurlanib qolgan. Memoriy obidaning ushubi haqida gapirar ekanmiz, Orta Osiyo me'morchiligidagi ko'p uchraydigan

gumbazsimon, qo' sh va "Chor" ushibidan keng foydalanilgan Madrasanining o' ziga xos tomonlaridan biri shundaki, me'moriy inshoot Ulug'bek madrasasining ro'parasida bir o'q chizig'i bo'yib joylashgan. Madrasa masjid vazifasini o'tagan, hozirgi kunda esa muqaddas qadamjolarimizdan hisoblanadi. Yana shimi ham aytib o'tish kerakki, madrasa o'z davrida qurilgan boshqa madrasalardan me'moriy yechimi bilan ajralib turgan. Mustaqillik yillarda me'moriy inshootda bir necha bor ta'mirlash ishlari Olib berildi. Ayniqsa, Samarqand shahrinining 2750 yilligi munosabati bilan Samarqanddagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Sherdor madrasasi ham ta'mirlandi. Bundandashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahan yodgorliklari ro'yxatiga kintildi.

3. Turdi Farog'iy hayoti va ijodi.

Turdi, Turdiy (asl ismi va taxallusi; forstojik she'rlaridagi taxallusi esa Farog'iy) (17-asr, Buxoro taxm. 1699/1700, Xo'jand) — shoir. Buxoro madrasalarida ta'lif Olgan. Abdulazizxon davrida saroyning amaldojarlaridan, yuz umg'ining ko' zga ko'ringan siyosiy arboblaridan bo'lgan. Subhonqulixon taxtga chiqqach, saroydan uzoqlashtirilgan. Ashtarkoniylarga qarshi 1685-86 yillarda ko'tarilgan xalq isyonida faol ishtirok etgan. Isyon bostirilgach, Turdi Jizzax, so'ng Xo'jandga borib, muhitojlik va uzuksiz ma'naviy tushkumlikda kun kechirgan. Turdi o'zbek va fors tillarini yaxshi bilgan. «Dar mazammati sipohigari» she'rida o'zining asosiy kasbkori sipohiylik («harbiylik») bo'lganini, shu kasbi bilan uzoq yillar nimalamidir tam'a qilib, shohlarga xizmat qilganini, lekin oxir-oqibatda hech narsaga erisha olimaganini afsus bilan ma'lum qilgan. Lekin harbiylik bilan bir qatorda Turdi o'z zamonasining o'qimishli, Sharq adabiyotidan mukammal xabardor, hayot, jamiyat haqida keng tushunchaga ega kishilaridan bo'lgan. Uning jamiyatda tutgan mavqeい esa o'z atrofida yuz berayotgan voqeа-hodisalarga faol aralashishni taqozo etgan. Turdining adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 lasi g'azal, 5 lasi muxammes va bittasi fard janriga o'jd. 434 misra hajmidagi bu merosning 165 misrasi Subhonqulixon haqidagi mashhur hajviyani tashkil etgan («Subhonqulixon to'g'risida hajviya», 1691). Turdi ham o'z ijodini boshqa shoirlar kabi an'anaviy ishq mavzuidan boshlagan.

Subhonqulixon to'g'risidagi hajviy muxammasi Turdining shoh asari hisoblanadi. Asarda Subhonqulixon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ahvol yomon tomonga o'zgarganligi, osoyishtalik o'mini tanibsizlik, adlu karam O' mini o'zaro nifoq egallagani o'z aksini topgan. Shohning aybi shundaki, u taxtga O' tirishi bilanoq tajribali, ishbilarmon mulozimlarni quvib, ulaming o'miga o'z atrofida davlatni boshqarish ishidan butunlay xabarsiz, fikr-mulohazalarini sayoz, axloqan tuben kishilarni yig'adi. Turdi bu aserida Subhonqulixon qiyofasida johil shoh timsolini yaratadi. Ushbu hajviy asari bilan Turdi o'zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir bosqichga ko'targan. Turdi ijodi hayotiy faktlarga, teran mulohazalarga boyligi va uslubining realistik xarakteri bilan o'zbek adabiyoti rivojiga samarali ta'sir qilgan. Maximu, Gulxaniy kabi satirik shoirlar ijodining shakllanishida muhim bosqich bo'lgan. A. Majidiy tomonidan topilgan va 1924-25 yillarda nashr etilgan she'rlar qo'lyozmasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

21-BILET

1. Salib yurishlari

Salib yurishlari — G'arbiy Yevropa feodallarining Yaqin Sharqdagi bosqinchilik va talonchilik urushlari edi. Bu yurishlar 1096—1270-yillarda oraliq'ida bo'lib o'tgan. Sharqdagi yerkanni egallash orqali cherkov o'zining ta'sirini yanada kuchaytirishni maqsad qilgan. Sharqda XI asr oxirida vujudga kelgan vaziyat salib yurishlari uchun qulay sharoit tug'dirgan. Kichik Osiyo yarimoroli deyarli to'liq saljuqiy turklar qo'lida edi. Bu yerdan G'arb mamlakatlari ziyoratchilari Falastuning muqaddas joylariga, rivoyatlarga ko'ra, Iso payg'ambar dafn etilgan Quddusga boradigan yo'llar o'tardi. Quddus esa deyarli besh asrdan buyon musulmonlar qo'lida edi. Mahalliy hukmdorlar va aholining ziyoratchilarga munosabati yomon bo'lmasa-da, XI asr oxiridan boshlangan musulmon hukmdorlarining O'zaro unislari xristianlar ziyoratlarini tobora xavfli tadbiriga aylantira borgan. Vizantiya imperatori Rim papasi bilan kelishmasa-da, xristianlar dushmanlari bilan kurashish

uchun jangchilar yuborishini so'nb, G'arbgan murojaat qiladi. Papa Urban II 1095-yilda Fransiyaning janubidagi Klermon shahrida cherkov yig'ingiga to'plangan minglab mihoniylar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi. U Quddusdagi «payg'ambar qabrim» musulmonlardan ozod etishga chaqiradi. Papa yurishda ishtirok etganlarga ularning gunohlari kechirilishini, halok bo'lganlar ruhining jannatga — «arshi-a'logo» tushishini va'da qiladi. Urban II «muqaddas yer»ning boyliklari va hosildor ekanligini ham eslatib o'tadi. Falastinda «sut va asal daryo bo'lib oqishi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o'ika» ekanligini ta'kidlaydi. Bu so'zлами xaloyiq «Xudoning irodasi shu!», «Xudoning xohishi shu!» kabi hayqiriqlar bilan qarshilaydilar. Ular matodan «bub», ya'ni «salib»ning aksini qirqib, o'z kiyimlariga tika boshlaydilar. Ayni shu sababli yurish qatnashchilari «salibchilar», yurishlarning 0' zi esa «salib yurishlari» nomini oladi. Dehqonlar salib yurishlarida qatnashish orqali 0' zlarning og'ir hayotidan qutulib, Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar. Salibchilarning ko'pchiligini, asosan, ritsarlar tashkil etib, aksari boy bo'lmagan xonadonlardan edilar. Oilaning kichik o'g'ilari, mayorat tizimi bo'lganidan, ya'ni meros katta o'g'ilga qoldirilgani sababli, ota-onalari merosining katta qismiga umid qilmasalar ham bo'lardi. Bu holatdagi ritsarlar 0' zlariiga shon-shuhrat va boylik istab yo'l ga chiqqanlar. Gersoglar, graflar va hatto ayrim qirollar hamda imperatorlar ham Sharqqa jo'naydilar. Ular o'zlariga yangi hu dudlar va fuqarolarni bo'yusundirishni maqsad qilganlar. Qo'shim bilan savdogarlar ham yo'lga chiqib, ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar. Albatta, salib yurishi ishtirokchilari faqat foydani o'ylagan desa xato bo'ladi. Moddiy manfaat ularda «payg'ambar qabri»ni musulmonlardan xalos etish muqaddas ish ekanligiga ishonch bilan mujassamlashgan. Birinchi salib yurishlariga Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatiidan kelgan ritsarlar to'plangan. Ular yaxshi qurollangan, zamr ozuqa va pul bilan ta'minlangan edilar. Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to'plana boshla gan ritsarlarga imperator Aleksey I vassallik qasamyodini qabul qildirgan. Ya'ni Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyo siy qaram bo'lishi lozim edi. Yurishlar Suriya bilan Falastinda salibchilarning o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlanadi. Ulaming ichida Quddus qirolliqi salibchilarning asosiy davlati edi. Salibchilar Quddusni egallahda birginajome masjidida 10 ming musulmonni o'ldiradilar. Yahudiylar o'z sinagogasi (ibodatxona)da yondirib yuboriladi.

Qirg'in paytidu ko'plab ayollar va bolalar ham halok bo'ladi. Shahadliklar niyiga bostirib kirgan ritsar eshikka qalqonni osib qo'yar va bu uy barcha jibozlari bilan yangi xo'jayinga o'tganligini anglatar edi. Musulmon hukindorlari Sharq va Jamb tomonidan salibchilarni siqib kelmoqda edi. Ularga qarshi kurashish uchun Yevropa feodallari ikkinchi salib yurishini uyshtirdilar. Ikkinchi salib yurishi XII asr o'nalarida bo'lgan. Fransiya qiroli o'z qo'shini bilan ishtirok etgan bu yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagan. Musulmonlar tez orada kuchi davlat tuzadi. Misr sultonasi Salohiddin Ayubiy 1187-yilda salibchilardan Quddusni tortib oladi. Bu voqeа Yevropada 3-salib yurishlari (1189-1192) tashkil qilinishiga olib keladi. Amme german imperatori, Fransiya qiroli va Angliya qiroli ishtirokidagi bu yurishlar ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. To'rtinchchi salib yurishlari (1202—1204). XII asr oxirida papa Innokentiy III yangi salib yuri shlarini tashkil etishga kirishadi. Salibchilar qo'shinni Venetsiya bilan dengiz orqali kemalarda Falastinga olib o'tishga kelishib, 85 ming kumush marka pul to'lashni zimmalariga ola dilar. Kelishilgan pulning deyarli 1/3 qismini to'lay olmagan salibchilar yurishlar boshlanishidanoq Venetsiyaning savdodagi asosiy raqibi Vizantiyaga qarshi urush bosh lashga majbur bo'ladi. Urush boshlash uchun esa ukasi tomonidan taxtdan tushirilib, ko'ziga mil tortilgan Isaak II Angelga toj-u taxtni qay tarish bahona bo'ladi. To'rtinchchi salib yurishi qatnashchilari hisoblangan ritsarlar qo'shini Konstantinopol devorlari ostiga kelib tushadi va 1204-yilda shaharga hujum boshlaydi. Yigirma minglik qo'shin yarim million abolis'i bo'lgan shaharni egallahiga muvaffaq bo'ladi. Konstantinopol asos solinganidan buyon ilk bor dushman o'jasiga aylanadi. So'uggi salib yurishlari Yaqin Sharqdagi vaziyatni 0' zgartira olmaydi. Fransiya qiroli Lyudovik IX ning 1269—1270-yillardagi sakkitzinchi salib yurishlari so'ngisi bo'ladi. Ko'p o'tmay salibchilarning Sharqdagi mulklari birin-ketin musulmonlar qo'liga qaytadi. Salib yurishlari to'xtatilishining asosiy sababi XIII asrning oxiridan G'arbiy Yevropa mamlikatlari boshlangan 0' zgarishlar bo'ladi. Ishlab chiqerish kuchlari 0' sadi. Ormonlar kesilib, ekinzorlarga aylantirila boshlaydi. Qishloq ahonisining yersiz bir qismi tobora yuksalayotgan shaharlarga ketadi. Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashi va mamlikotni

markazlashtirish siyosati Titsarlarga qiroq qo'shimida xizmat qilish imkonini yaratadi. Savdogarlar tinch yo'l bilan savdo-sotiq olib borishning afzalligiga ya'ni bir bor ishonch hosil qiladilar. Salib yurishlari o'zining asosiy, ya'mi Sharqda kuchli xristian davlatini yaratish maqsadiga erisha olmaydi. Unda qatnashgan 100 minglab kishilar halok bo'lib, katta moliyaviy zarar ko'riladi.

2. Misrpiramidalari haqida ma'lumot berine.

Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan piramidalar, (fi ravnlar dafn etiladigan joy) — maqbaralar bo'lgan. O'tgan ming yilliklar davomida ko'pdan ko'p shaharlar va davlatlar yo'q bo'lib ketdi, ibodatxonalar va saroylar xarobaga aylandi. Faqat piramidalar vaqtidan qorqmaydi. Faqat piramidalarga to'rt ming yildan oshiq vaqt davomida O'zgarmasdan turibdi. Eng mashhur piramidalar Memfis shahri yaqinida uch fir'avn Xufu, Xafra va Menkaura uchun buniyod etilgan. Bu piramidalar jahonning yetti mo'jizasidan biri bo'lib, ular hozirga qadar saqlanib qolgan birdan-bir inshootlardir. Eng katta piramida Xufu uchun (yunonlar uni Xeops deb atashgan) mil. avv. 2600-yil atrofi da qurilgan. Uning balandligi 147 metr bo'lgan. Piramidalar qurilishi uchun toshlar Nil daryosining o'ng sohilidagi yassi tog'lardan olib kelgingan. Piramida har biri ikki tonnadan og'irroq bo'lgan 2,5 million dona tosh bo'laklaridan tashkil topgan. Eng kichik toshning og'irligi 2,5 tonna bo'lgan. Ehrom toshlariga shunday ishlov berilganki, birining ustiga ikkinchisi qo'yilganda ular judayam zinch yopishib turgan. Piramida ichida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalardan iborat bo'lgan. Ulardan birida fir'avuning munimiyolangan jasadi solingen toshtobut sarkofag joylashgan. Daxmalar ichi devorlari esa namojotlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan. Ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi nazarda utilgan. Piramidalarni sfinks — tanasi shemiki va boshi odamniki bo'lgan ulkan haykal qo'riqlaydi. «Sahro shohi» — sfinks haykali toshdan ishlangan bo'lib, uning balandligi 20 metrda teng. Yangi podsholik davriga kelib ehrom qurmay qo'yishdi. Fir' avulami tog' larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishdi. Eng mashhur maqbara fir'avn Tutankhamonga tegishli bo'lgan. Maqbara ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizga qadar yetib kelgan.

3. Mohlarovim — Nodira havoti va ijodi.

O'zbek shoirasasi- ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim — Nodira (1792-1842) Andijonda tug'ilgan. Otasi Rahmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylan-gan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda faol ishtirok etadi, madrasalar qurdiradi. Nodira olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'plagan, ko'p kitoblarni qayta ko'chirtingan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan. Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillanda ijod qilgan. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 She'r jamlangan devon, Komila taxallusida 19 g'azal, Makmuna taxallusida 333 g'azaldan iborat devon yozgan. Nodiradon 10 ming misraga yaqin link adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlerida muhabbat, sadqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohfig'onlari kuyylanadi. Bundan tashqari, Nodira Navory, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muxam-maslar ham yozgan. 1842-yilda Amir Nasullo qo'shinlari Qo'qon egallagandan so'ng, anir farmoniga ko'ra Nodira qatl etiladi.

22-BILET

1. SSSRning tashkil to'ldishi.

1922-yili amalga oshirilgan muhim tadbirlardan biri.

SSSRning tashkil topishi bo'ldi. Millatlarning o'zi huquqini o'zi belgilash tamoyi lidan kelib chiqib, barcha respublika lar federativ davlatga teng huquqli a'zo bo'lib kirdilar. Natijada, 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil qilindi. Bu yangi davlatda eski jamiyat ning asoslari buzib tashlandi, «davlat sotsi alizmi» (davlatning iqtisodiyot ga va ijtimoiy munosabatlarga aralashuvni) o' matildi va iqtisod, jamiyat,

davlat misli ko'rilmagan sur'atlarda isloh qilindi. Sovet tipidagi «davlat sotsializmi» jamiyatni industr' lashti rishning kapitalistik usuliga muqobil yo' I edi Dastlab SSSRga Rossiya, Ukraina, Belorusiya va Kavkazorti respublikalari kirdilar. 1924-yili davlatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi 1924-yili Kavkazorti va O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralaranish o'tka zilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi. Shu yillari SSSR Yevropa davlatlari tomonidan, 1933-yili oxirgi yirik davlat — AQSH tomonidan tan olindi. SSSRning I -davlat rahbari Iosif Vissarionovich Jugashvili (Stalin) bo'lgan.

2. Reviston ansambli haqida ma'lumot berine.

Registon deyilganda Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham shaharning markaziy maydoni tushunilgan. Tarixda bunday maydonlarda turli tadbirlar - bayramlar, sayilar, tomoshalar o'tkazilgan. Maydon o'yilib ketmasligi uchun uning ustiga mayda tosh yotqizilgan. Keyin halik Registon maydonida Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalaridan iborat me'moriy majmuasi buniyod etildi Ulug'bek madrasasi XV asrda qurildi. U ikki qavatlari bo'lib, atrebi hujra va darsxonalar bilan o'ralgan. Madrasalarning qolgan ikkitasi - Sherdor va Tillakori madrasalarini XVII asrda Samarcand hokimi Yalangto'sh Bahodir qurdigan. Sherdor madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'perasida joylashgan. Madrasa to 'rt burchakli va ikki qavatlari qilib qurilgan. Peshtoqqa qizg'ish zarhal tuşli Sher oq obuni quvib horayotgani tasvirlangan. Quyosh esa bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlangan. Peshtoqning ikki tomonida gimbazli darsxona va masjid joylashgan. Tillakori (tila bilan ishlangan) madrasasi dastlab Yalangto'shibiy kichik madrasasi deb nomlandi. Madrasa binosidan o'rn Olgan masjidning bezagiga ko'p miqdorda oltin sarflangan uchun madrasa Tillakori nomini oldi. Samarcand shahriming 2750 yilligi munosabati bilan Tillakori madrasasida ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda Registon maydonida mashhur «Sharq taronalar» xalqaro musiqiy festivallari o'tkazilib kelinmoqda.

3. Amir Umarxon hayoti va faoliyati.

Amir Umarxon, Amiri (1787- Qo'qon - 1822) - Qo'qon xoni (1810-1822), zullisonayn shoir. Norbo'tabiyning o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oila chikarib, keyin madrasada tahsil Olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan. akasi - Qo'qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-08 yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun qo'shim tortganligidan foydalaniib, fitna uyushtiradilar va 1810 yil Umarxonni xon qilib ko'tandilar, Olimxon esa o'diriladi. Umarxon Qo'qon xonligi huchudini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amriiga qarashli Turkiston shahri (1815), O'rategani (1817) bosib Olgan. Sirdaryo bo'yidagi yerlarda Yangiqo'rg'on, Julek, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurdigan. Ular O'rta Osiyon Rossiya bilan bog' laydigan muhim savdo yo'lida joylashgan edi. U Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'natishga harakat qilgan. Umarxon davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan. Xon amaldorlarining talouchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko'tarilgan qo'zg'olon bostirilgan. 19-asuning 1-yarmida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelgan. Uning boshida turgan ma'rifatpaivar hukmador Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot, turli kasbhunarlarining rivojiga katta e' tibor bergan, madrasalarda o'qisho' qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qollab-quvvatlagan. O'zi ham Amiri taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821 yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriiga binoan, 63 shoirning she'rinii o'z ichiga Olgan «Majmuai shoiron» to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'azallariga tatabbu'lар bog'lash bu shoirlar ijodiда yetakchi o'rн tutgan. Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o'ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o'rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Anizing turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o'ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she'riarning barchasi ishq muhabbat mavzuvida. Ularda an'anaviy motivlar va tasavvufiy illh

ustun. O'zbek va fors-tojik tilidagi she'tlarini to'plab, devon taftib bergen. Devon g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'mi o'z ichiga Olgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davriarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga Olimib, ularning ilmiy tafsifi berilgan. Bu qo'lyozmalar Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarcand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she'rilaridan namunalilar berilgan bayozlar bor. Uning g'azallar devoni 1882-yilda Istanbulda, 1905yilda Toshkentda chop etildi.

23-bilet

1. Jakeriva qo 'ze 'oloni.

Fransiyani yagona davlatga birlashtirishni tugallash oson vazifaemas edi. Chunki birlashtirish siyosati nafaqat ichki, ayni paytda, tashqi to'siqlarga ham uchragan. Eng katta tashqi to'siq Angliya edi. Fransiyaning Akvitaniya viloyati Angliya qo'l ostida edi. U bu viloyatni Fransiyaga qaytarib berishni istamagan. Buning ustiga, markaziy hokimiyatga bo'yusummaslik uchun kurashayotgan Flandriya viloyati Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Angliya qiroli Edward III Fransiya qiroli Filipp VI (1328 - 1350) (qizining o'g'li)ning nabirasi bo'la turib, Fransiyaga qarshi siyosat yurita boshladi. Bu omillar Fransiya - Angliya munosabatlarini tobora keskinlashtirgan. Endi bu ikki davlat o'tasida urush chiqishi muqarrar edi. Ulushning boshchanishi uchun bir bahona kerak edi, xolos. Filipp VI vasofidan so'ng Edward III Fransiya taxtiga da'vegarlik qilib chiqdi Biroq Fransiya qonunshunoslari ayol tomonidan bo'lgan avlod qirolik taxtiga o'tira olusaydi, degan xulosani berdi. Bu esa unish boshlashga bahola bo'ldi. Unushning boshchanishi. Urush 1337- yilda Angliyaning hujumi bilan boshlandi. Flandriya urushda Angliyaning yaqin ittifoqchisiga aylandi.

2. Go 'ri Amir maqbarasi.

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o'g'illari Umar-shayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va b.) dafn etilgan. Bobuning ta'kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal'asi jan.da Toshqo'rg'on — chaqardi Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo'lgach (1403). Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara Madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlari natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoddiglari topilgan Madrasa va xonaqoh chorsa hovlining sharqiy va g'arbiy tomonlarini egalla-gan. Hovliningjan da gumbazli maqbara joylashgan. Maqbaraga jan. dan, Ulug'bek qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyorat-xonasasi baland toqi — ravoqli, tepe-si yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashki gumbazi 64 qobirg'ali, baland poygumbaz (diametri — 15 m, bal. 12,5 m)ga o'matilgan.

3. Mahmudxo 'ja Behbudiv havoti va faolivati.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O'rta Osiyo jadidlarning otasi» deb tan olingan Mahmudxo ja Beh-budiy (1875-1919)ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-Tilning 19-yanvarida Samarcand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarcand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin mustify darajasiga ko'tarildi. Behbudiy Ocerta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yolboshechisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlantishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiying tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan

24-BILET

1. Spitamani qo'zg'oloni.

Miloddan avvalgi 329-yilda yunon-makedonular Maroqandani egalladi. So'g'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi- kurashga chiqadi. Tez orada so'g'diylargaga haqtriyaliklar va saklar qo'shiladilar. Qo'zg'olouga iste'dodli tashkilotchi va harbiy yo'boshchi Spitaman boschilik qiladi. Ancha qo' shin to'plagan Spitaman Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordanga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda «Politimet» deb atalgan Zarafshon daryosi bo'yida makedonlarga pistirma qo'yan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandring 0' zi qo'zg' oloni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib keloyotgimidan xabar topgan Spitaman qamalni to'xtatadi va o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi. Sakiarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida qafa barpo etish to'g'risida buyniq beradi. Bu qafa Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo' shin qoldirib, asosiy qo'shinlar bilan qishlash uchun Zariasp (Baqtra)gajo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg' oloni bostirish chorasini ko'radi. 0'z lashkarlarini uch qismiga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi. Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvechi jangi bo'lib o'tadi. Kuchlar teng bo'limganidan Spitaman yengilib, yana cho'lga chekinadi. 0' sha yerda u xoindarcha o'ldiriladi.

2. Ichانqal 'a me 'moriy yodgorligi.

O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal 'a (Shahriston) qismi Ichan qal 'a shaharning Dishan qal 'a (tashqi qafa) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal 'a)dan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rindi. Ichan qal 'aga 4 darvoza (Bog'cha dar-voza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kirligan. Xorazm xalq me'morligining ajoyih obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal 'ada. Undagi me'moriy yodgorliklarning yara-tilishi tarixi, asosan, 4 davriga taad-luqli birinchisi Xorazming qad. davridan to mo'g'ullar istilosini davriga qadar, bu davridan Ko'qua arkning garbiy devori, qal'a devorining shim.sharqiy burchagidagi qad. davrga mansub burj va qal'a devori qoddiglari saklanib qolgan. Ikkinchisi Xorazming 1220 yildagi mo'g'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va b. mahobatii binolar qurilgan. Uchinchi davri 16—17-asrlarga to'g'ri keladi. Shu paytda (Abulg'ozxon va Asfandiyorxon hukmronlik davri) Ichan qal 'ada Anushaxon hammoni (1657), peshayvonli Oq masjid (1675), Xo'jamberdibek madra-sasi (1688) kabilar buniyod etildi, Ko'hna ark istehkomlari mustaqamlandi, ko'tinislxonha (xonning qabulxonasi) qurildi (1686—88). Buxoro bilan Eron o'rtaida Xiva xonligi uchun boshlangan urush natijasida (18-asning 1 -yarmi) Ichan qal 'a va, umuman, Xiva sh. qattiq shikastlandi (Xiva bir qancha vaqt Eroniga tobe viloyat bo'lib turdi).

3. Kamoliddin Behzod havoti va faoliyat.

Kamoliddin Behzod (1455—1536) XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyandasidir. U musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi. Behzod o'z davrida Moniy: Soniy (Ikkinchchi Moniy) deb ulug'langan. U ustoz san'atkor sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va — boshqa o'lkalar tasviri san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Behzodning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, u tarixiy siyosalar (Husayn Boyqao, Shayboniyyon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib to serjilo hukmador saroylaridagi qabul marosimlari va — jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta' sirli qilib — bera Olgan. Dehlaviyning Layli va Majnun" un" dostoniga bag'ishlangan uning lirik manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari uchum chizilgan jang maydonidagi shiddati jang tasvir etilgan miniaturelari nihoyatda jozibador va ta'sirchadir Behzod an'analeri keyingi davr rassomlari ijodiga ijobji ta'sir ko'r satdi. Uning ijodi va mero si san' atshumoslar, rassomlar tomoni dan keng o'rganiladi. Behzod nomini abadiylashtirib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Pre zidenti Islom Karimovning 1997-yil 23-yuvardag'i farmoniga binoan Kamoliddin

Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi, Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berildi. 2000-yil noyabrda Toshkent, Samar qand shaharlarida va xorijiy mam laktatlarda YUNeSKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahrida Behzod nomidagi memorial bog' barpo etildi. Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyida Behzodga bag'ishlab Buyuk Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston - va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

25-bilet

1. Amir Temurnine Movarounnahri egallashi

14-asr o'ularida barlos beki o'g'li Temur Tarag'ay buyuk siyosiy arbob sifatida tarix sahnasida namoyon bo'ladi Nufuzli turk amiri Qazag'on nabirasi — Samarqand hukmdori Xusayn bilan ittifoqchilikda Temur Movarounnahri birlashtirish va uni mo'g'il bosqinidan ozod qilish uchun kurash boshlaydi. Biroq ko'p o'tmay ular o'ttasidagi munosabatlar keskinlashadi. 1370 yili Amir Temur Xusayn qo'shinini tor-mor qilgach, Movarounnahr amiri deb e'lon qilinadi. 1372—1388 yillar davomida Amir Temur Xorazmga besh mana yurish qiladi va uning o' ziga to'la tobe bo'lismiga crishadi. Shundan so'ng u Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya, turkiyage harbiy yurishlami boshlaydi. Natijada ulkan imperiya barpo etiladi. Biroq Temur davlati qudratiga Juchi ulusi tarkibidagi Oltin o'rda va Oq o'rda doimo ralma solib turadi. 1379 yili Amir Temur To'xtamishning Oq O'rda taxtiga ko'tarilishiga yordam beradi. Biroq Mamay ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng, To'xtamish Oltin o'rdadagi oliv hokimiyatni egallab Oladi va Temur tasarrufidagi yerlarga hamla qila boshlaydi. Bunga javoban Amir Temur To'xtamishni 1391 yili Qunduzchi va 1395 yili Shimoliy Kavkazdagagi Terek daryosi vodisida qaqshatqich mag'lubiyatga uchratadi Natijada To'xtamish kuchlari shunchalar zaiflashdiki, Temur uchun Volgabo'yiga, Oltin o'rda poytaxti — Saroy Berkka to'g'ridan-to'g'ri yo'l ochiladi. Shahar ishg'ol etiladi. 1398—1399 yillarda mashhur hind yurishi amalga oshirilib, u yurtdan katta o'lia olib kelindi. 1400 yili Amir Temur turk sulton Boyazid I va misr sulton Farajga qarshi urush boshlaydi. 1402 yili Ankara yaqinida usmon sultonni usil-kesil tor-mor qilinadi va bu hol Istanbulni usmonli turklar tomonidan istilo etilishini 50 yilga kechiktiradi. 1404 yil boshida Temur o'zining 200 ming lashkarlik qo'shini bilan Xitoyga yurishga hozirlik ko'radi. Biroq 1405 yilning 18 fevralida Temurning O'rorda vafot etishi tufayli bu yurish amalga oshmay qoldi. Amir Temur hukmronligi davrida ulkan imperiyaning markazi bo'lgan Movarounnahrda iqtisod, savdo va madaniyat yuksak darajada ravnaq etdi. Temuriylar uyg'onishi davri bo'lmish 14—15-asri Markaziy Osiyo tarixidagi „oltin asr”, deb ataladi. Bu asr jaxonga mashhur olimlar, buyuk shoirlar va rassomlarni tuhfa etdi. Isfaxoniylar O'zining „Buxorolik mehmon kitobida” Samarqandda paxtachilikning rivojlantishi hamda paxta tolesi va shoyi matolarining ishlab chiqarilishi haqida bayon etgan. Temur dunyo savdogarlar tufayli obod bo'ladi, deb hisoblagan va binobarin yangi yo'llar, savdo inshootlarini buniyod etish uchun katta mablag'lar sarf etgan. Aynan Temur zamonida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Yevropaning olis yurtlari Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan iqtisodiy va siyosiy mimosabatlar kengaygan.

2. Ma'buda Artemida ibodatxonasi haqida ma'lumot bering

Ma'buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati huidudidajoylashigan) ko'rganlami 101 qoldiradigan ibodatxona qurilgan. Afsonalarga ko'ta, - Artemida Zevsning qizi bo'lgan. U hosildorlik, ov va Oy ma'budasi edi. Ayni paytda hayvonlar homiysi, Ma'buda Artemida shuningdek, ayollar modadkori ham ibodatxonesi. hi sobi angan. Artemida ibodatxonasining tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar suyab turgan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan. Mil.av. 365-yilda Gerostrat ismli shaxs sinhrat qozonish maqsadida ibodatxonaga o't qo'yib, uni yoqib yuboradi.

3. Mirzo Ulug'bek havoti va faoliyatini

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394 yil 22 mait, Sultoniya shahri, Eron Ozarbayjoni - 1449 yil 27 oktyabr, Samarqand) o'zbek xalqi tarixida buyuk astronom va matematik, davlat arbobi sifatida iz qoldirgan. Shohruxonning 0' g'li, Amir Temurning nabirasidir. Sohibqironning "besh yillik

yurish"ida (1392-96) Iroqdag'i Mordin qafasini qamal qilish chog'ida tug'ilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga Chopar kelib Ulugbekning tug'ilgani va munajimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qafasi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning 0'z nabirasiqa Muhammad Tarag'ay va Ulugbek deb ism qo'yanini ham munajimlarning yuqoridaq bashorati bilan bog'lash mumkin. Amir Temur Ulugbek tarbiyasiga alohida c'tibor bergen va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirdarda qatnashitgan. Klavixoning qayd etishicha, Ulugbek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404 yil Konigilda o'tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jurnidan, Ulugbekning) nikoh to'ylarini o'tkazgan. To'yda Sohibqiron Ulugbekka Toshkent, Sayram, Yangi (hoz. Taroz), Ashpara va Mo'g'ulistonni to Xitoy hududigacha suyurg'ol qilib bergen. Amir Temur O'trorda vafot etgan chog'da Ulugbek ham o'sha yerda bo'lgan. Temuriylar o'nasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O'trordan qaytg'an Shohrux farzandlari - Ulugbek va Ibrohim Sultan ni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoh topishgan. Samarqand taxtini Xalil Sultan egallagan. Xurosuni boshqarib turgan Shohrux Ulugbekka dastlab Andxo'y bilan Shibirg'oni, keyinchalik Xurosuning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410 yil Shohrux Movarounnahrni 0'z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulugbekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulugbek yosh (15 yosh) bo'lGANI sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning isqibi - O'trordagi Shayx Nuriddin va Muhammed Jahongirning Hisordagi voliyları 1410- yil bahorida Ulugbek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo'lgan jangda Shohmalik va Ulugbek g'alaba qilganlar. 1411 yil sentabrda Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o'zi bilan Hirota Olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtan boshlab Ulugbek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. Shohrux Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunenchi, Hisori Shodmonni Muhammad Sultonning o'g'li Muhammed Jahoqir mirzoga, O'zgand viloyatini Umarshayrning o'g'li Amirak Ahmadga suyurg'ol qilgan edi. Biroq ular Ulugbekka lobe edilar. 1414-15 yil ular o'tasida ixtilof chiqib, Ulugbek Amirak Ahmad ustiga qo'shin tongan va uni yenggan. Shohrux Amirak Ahmadni Xurosonga chaqirtinib Olgan; Qashg'ar ham to 1428 yilgacha Ulugbekka tegishli bo'lgan. Ulugbek o'z hukmronligi davomida 2 marja yirik yurish qilgan. Birinchisida 1425 yil Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'lon (1421-1425) o'zini mustaqil xon deb e'lon qilganda, Ulugbek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulugbekning 2-yurishi Sig'noq shahri tomon bo'lgan. Sirdaryoning quyi havzasini Ulugbek tasarmifida edi Ulugbek 1427 yil Sig' noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq o'g'lon bilan to' qashgan va mag'lubiyatga uchrangan. Dushman Ulugbekni ta'qib qilib, Samarqand oslonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohrux Xurosondan katta lashkar tortib kelib xavfi banaraf etadi.

26-BILET

1. Franklar imperivasinine tashkil topishi.

Biyuk ko'chishlar boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar Reyn daryosi quyi oqimidagi Hududlarda yashaganlar. Franklar gotlar va langobardlar kabi hayvon terisidan emas, matidan kiyim- bosh kiyishgan va soch-soqollarini Olib yurishgan. Ularda faqat qirol oilasiga mansub kishilar uzun sochda yurishgan. Franklar - Quyi va O'rta Reyn bo'yalarida milodiy 3asida yashagan qabilalar ittifoqiga birlashgan german qabilalari guruhi (xamavlar, brukterlar, usibetlar, tenkterlar, sugambirlar va boshqalar). Adabiyotlarda 2 guruhga bo'lingan. Igruh (g'arbiy F.)ning negizini sali (dengiz bo'yi; keltcha sal — dengiz) F.i tashkil etgan. Ular dastlab Eysel daryosi bo'yalarida, 4-asr o'ttalarida esa Reyn daryosi sohillarida yashaganlar. 2guruh (sohil F.) Reyn daryosining yuqori qismini bo'ylab Mayngacha bo'lgan Hududda yashagan. Sali F.i 4-a o'tasida rimliklar tomonidan tormor etilgan, biroq federatlar huquqida Toksandriyada kridirilgan; 451 yil gunnlarga qarshi Katolaun jangit qatnashganlar. 5-asr boshida sali F.i Galliyam Soninagacha egallaganlar. Frank davlati (5-asr oxiri — 9-asr o'ttalar) tashkil topgan Maas va

Luara daryolari oralig'ida yashagan F. keyinchalik mahalliy aholi bilan singib ketib, shim, fransuz, shuningdek, vallon etatlari tarkibiga, Luaraningjan roq'ida yashovchi F. esa, jan, fransuz (provansal) etati tarkibiga kirgan. Reyn daryosining quryi havzasida yashovchi F. gollandlar va flamandlarning etnogenezida katta rol o'ynagan. Reyn daryosining o'rta oqimi bo'ylab va Maas daryosi havzasida yashovchi F. da o'ziga xos etnik xususiyatlar saklanib qolgan. FRANKONIYA (Franken) Germaniyadagi tarixiy viloyat. Ilk o'rta asrlarda franklar istiqomat qilgan hudud, 9-asr oxiri 939 yilda Germaniya qrolligining qabilaviy gersogliklaridan biri, keyinchalik bir necha feodal mulklarga parchalanib ketgan. F. nomi faqat Sharqiy F. (Mayn daryosi xavzasasi) uchun saklanib krlgan. Uning katta qismi 1803 yilda Bavariya tarkibiga kiritilgan.

2. Sherg' ozixon madrasasi.

Sherg' ozixon madrasasi XVIII asming birinchi yarmi. Bu madrasa Xorazmdagi o'quv muassasalarini orasida eng ko'lmasidir. Uni Xiva xoni Sherg'ozixon 1719 yili Mashhadga muvaffaqiyatli safar qilgandan so'ng ana shu g'olibona safar sharafiga qurdirgan. Madrasa binosi bizning davrimizgacha asl bolicha to'la yetib kelmagan. Yillar mobaynida nurab, yaroqsiz holga kelib qolgan. Mazkur madrasa o'z davrida yirik bilim o'chog'i bo'lib, unda ko'plab tolibi ilmlar tahsil olganlar. Jumladan, turkman xalqining mutasavvif shoiri Maxtumquli ham mana shu bilim dargohida ta'lim Olgan.

3. Nikolay Konerniknine havoti va faolivati.

Nikolay Kopernik (1473- 1543) o'z davri uchun har tomonlansa chuqur bilim oldi. Krakov (Polsha) va Italiya universitetlarida o'qidi. Tasviriy san'at, matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyot kabi fanlarni o'rgandi. Maxsus moslamalar yorda-mida 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatdi. N. Kopernik o'z tadqiqotlariga suyanib, ming yillardan beri davom etib kelayotgan Yerning harakatsizligi haqidagi ta'limotdan voz kechdi. Yerning Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. Bu xulosa 0' sha davri fanidagi haqiqiy buyuk kashfiyat edi. Ayni paytda u cherkov aqidalariga mutlaqo zid xulosa ham edi. U 0' z xulosalarini 1543 -yilda Chop etilgan «Osmon jismlarining aylanishi haqida» nomli kitobida bayon etdi. N. Kopernikning xulosalari cherkovni g'azablantirdi. Kitob Chop etilgan davrda u o'lim to'shagida yotardi. Faqat o'limgingina uni inkvizitsiyadan asrab qoldi. Keyinchalik, cherkov Kopernik ta'limotini rasman taqipladi.

27-BILET

I. Islom dini va arablar birlashuvi.

Islom (arabcha — bo'y sunish, itoat etish, 0' zini Allah irodasiga topshirish) tarqalgan uch dimdan (buddizm va xristianlik bilan bir qatorda) biri. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha „muslim” („sadoqatli”• ko'pligi „muslimun”) deb ataladi. „Muslim”, „muslimun” so' zining boshqa xalqlar orasida o'zgacha talaffuz etish (masalan, forslarda — musalmon, o'zbekdarda musulmon, qirg'iz va qozoqlarda musulmon, Ukraina va Rossiyada basurman) natijasida bu dingga e'tiqod qiluvchilar turli nom bilan ataladi. Lekin bulaming ichida hozir musulmon iborasi keng tarqalgan.

Jahonda qariyb 1,2 milliard kishi Islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qifa abolisining 20 % idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30 % musulmonlar Afrikaga to' g'ri keladi (qifa abolisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jumcalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'philigini tashkil qiladi — Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Istroil mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqa ba' zi mamlakatlarda aholining 80 % dan ortig'i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80 % igacha tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya Bisau, Kamerun, Burkina-faso, Syerra-Leone va boshqa)da musulmonlar ozchilikni

tashkil qilsa ham, ta ' sir doirasasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar — Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiptda, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Bosniya va Gersegovina, Albaniya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va boshqa), Shimoliy va Jamibiy Amerika qif'asi mamlakatlari (AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidat va Tobago)da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi.

Islom 7-asrda Hijoz (G'arbiy Arabiston)da paydo bo'lidi. Uning asoschisi Muhammad(s.a.v) sanaladi. Islom dinining paydo bo'lishi xususida Islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insoniarmi to'g'ri yo'lga solish uchun Allah tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqtiriladi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e'tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu xudo, ya'mi Allah odamlarga payg'ambar-elchilar yuborgan. Ammo insonlar payg'ambarlar ta'limotini buzganlar. Shimin uchun Allah insonlarga oxirgi rasul etib Muhammad(s.a.v)ni tanladi, unga o'zining kalomi — Qur'on nozil qildi.

Muhammad(s.a.v) oldin 0' z hamshaharlarini, so'ng barcha arablarni ko'plab qabila xudolariga sig'inishdan voz kechish va yagona xudo — Allahga e'tiqod qilish, solih hayo kechirish, u dunyoda jannahga tushish uchun bu dunyoda ezu ishlar qilishiga da'vet etdi. Qur'onga ko'ra, arablар va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim (a.s) Allahga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohim (a.s) ga nozil bo'lgan dinidir.

Muhammad(s.a.v)ga, 40 yoshida(milodiy 610-yil) vahiy (ilohiy ko'rsatma) kelishni boshladi. Ammo, bir necha nufuzli yaqin qurindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, quraysh qabilasining zodagonlari uning targ'ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Muhammad(s.a.v)ni yolg'onchiga chiqarib judda katta zulm ko'rsatildi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga hijrat qilishi, Yasribdag'i banu Avs va banu Kazraj qabilalarining vakillari 622-yinda musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammad(s.a.v)ni payg'ambar va Allahni yagona deb tan olishdi. Hijrat nomini Olgan bu voqeя Islom tarixida burilish yasadi.

Ko'chib o'tgan kishilar muxojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar anisorlar (tarafdarlar) deb atakdilar. Madina va Makka o'rtaida boshilangan kurash 8 Yil davom etdi (qarang Badr jangi, Uxud jangi, Xandaqjangi va boshqa). 628-yilda Makka zodagonlari Muhammad(s.a.v) bilan kelishihsiga majbur bo'ldilar (qarang Hudaybiya sulhi). 630yilda musulmonlar qo'shimi hech qanday qurshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allahning elchisi (rasuli) deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga. Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyyaratgohiga aylangan. Muhammad(s.a.v) vafot etgan 632-yilda Arabiston yarim oroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo'lib xizmat qildi.

2. Sitorai Mohi Xosa haqida ma 'lumot berine.

Tarixiy obida Buxoroning mang'it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan. Amir Abdulahad davrida me'moriy inshootning katta qisimi buniyod etildi. Sitorai Mohi Xosaning qurilishi XIX asming o'rtaida boshilangan va 1914-yilda qurib bitkazilgan. U Buxoro shahri markazidan 2,5 km janubda, Buxoro tumani bilan chegaradosh huchudidajoylashgan. Sitorai Mohi Xosaning qurilishi yangi tarix davriga, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratligi davriga to'g'ri keladi. Me'moriy inshootning qurilishida bir qator ashiyolar ishlataligan: g'isht (xon va pishgan), faner, yog'och ayniqsa tut va yong'oq dataxti, marmar, oyna, tunuka, tosh, cho'yan, temir va boshqalar. Uning dastlabki imorati Amirlar Nasullo hukmronligi davri (1826-1860-yillarda) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va hushmanzara bog' barpo etish Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910-yillarda) boshilangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920-yillarda) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroya ajratilgan. Eski saroy uch hovlidandan va ko'pgina xonalardan iborat ansamblidir. Bu yerdagi eng eski xona Amir Muzaffarxon mehnemonxonasi (1860-1885-yillarda) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonalı ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi.

Mehmonxonaning devoriy rasmari va ranglarida motivlar uyg'unlashtirilgan. Uch qismga bo'lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir-biriga ro'parajoylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o' nadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g'arb tomonida taxt o'matilgan. Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida ofxshashlik tomonlari juda ko'p. Eski Sitorai Mohi Xosuning Sharq tomonida Amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me'moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtoq — muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me'morlarining tajribasini o'rganish uchun yuborilgan. Shundan keyin Xoja Hofiz rabbarligidagi buxorolik ustalar kuchi bilan hovlining jamib tomonida ansamblning birinchini binosimi tiklashga kirishgan. Qurilish rus injenerlarinig nazoratida bo'lgan. Bosh binoni barpo etish jarayonida Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar-joylari binolarining me'moriy yechimlaridan foydalanilgan. Bino chiroyli me'moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo'limgan ustalar uchun murakkab bo'lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig'izlashtirib yuborilgan. Usibu binoga kiraverishda eshikning ikki tarafiga o'sha vaqtida hali unchalik tajribaga ega bo'limgan muratolik ustalar tomonidan marmardan tayyoriangan shening haykali o'matilgan. Biroq keyinchalik katta tajriba ega bo'lgan o'sha ustalar kompleksdiagi hovuzning suv tushishi uchun mo'ljallangan marmar novalami kannko' tsiz tayyoriab berганлар. Hovlining ikkinchi tomoniga, bu bino bilan yonma-yon, unga tik qilib g'arb tomonida 1912-1914-yillarda katta badiiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob Oq zal qurilgan. Bu zal va uning dahlizi buxorolik ustalar tomonidan milliy uslubda ko'rkam ishlangan. Oq zal ganchkorlik va ganch o'yinkorligi san'atining eng so'nggi yutuqlari asosida usta Shirin Murodov rabbarligida 25-30 ta qo'lli gul ustalar tomonidan ikki yil davomida ajoyib qilib ishlangan. Bino ichi noyob me'moriy yechimga ega. Oq zalning intererini bezatishda o'sha davrgacha ma'lum bo'lgan eng yaxshi tajribalar O'z aksini topgan. Devor va shiftlarda panno ko'rinishidagi oynalar ustida ishlangan ganchkorlik mahsuli kishi ko'zini qamashtirib yuboradi. Ishlatilgan oynalar devor va shiftda bejirim bezaklar ostidagi foy vazifasini bajargan. Yangi saroy "T" shaklida buniyod etilgan. Saroy rejasida, bezak va jihozlarida Sharq va yevropacha uslublar ma'lum darajada uyg'unlashgan. 1917-1918-yillarda zinali hovuz barpo etilgan, u ansambl me'morchiligidagi katta ahamiyat kasb etgan. 1917-1918-yillarda hovlining uchimchi — shimal tomonida hovuz oldidi yevropacha uslubda ishlangan peshayvonli bino qurilgan. Demak, me'moriy kompleksni barpo yetishda aralash, milliy va yevropacha usullardan foydalananilgan. Sitorai Mohi Xosaga kiraveri shda tashqi hovli, uning janubiy-g'arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubiy-sharqdagi qaratta-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor. Yozgi dam olish joyi bog'ning to'rida bo'lib, bino kichik hovli va hovuzchaga ega. Dam olish joyining atrofi baland imorat bilan o'ralgan bo'lgan. Bino assimetrik yechimda milliy tusda chiroyli ishlab chiqilgan. Saroy Buxoro amiri Olimxonning yozgi qarorgohlari bo'lgan. Amir bu yerdan yozgi dam olish maskani sifatida foydalangan Bundan tashqari Amir chet el elchilarini vurtus vakillarini shu yerda qabul qilgan. Me'moriy inshoot g'arb va Sharq me'morchiligi asosida qurilgan. Oq zalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi. Bugungi kunda inshootning ta'mir talab qismlari qayta rekonstruksiya qilingan. Inshootning kirish joyida xalq amaliy san'ati namunalari bo'lgan buyumlar savdo astasi mavjud. Hovlida esa tovuslar, Oq zalda amirlik huzurida bo'lgan chet el elchilarining billur vaza, qimmatbaho gilamlar, guldorlar kabi sovg'alalaridan iborat. O'zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan etiborga to'xtaladigan bo'lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi ummosabati bilan Buxorodagi barcha me'moriy inshootlar qatorida Sitorai Mohi Xossa saroyi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ni'yatiga kiritildi.

3. Ahmad Donish hayoti va faoliyat.

Yozuvchi, faylasuf, musavvir, ma'rifatparvar Ahmad Denish (1827-1897) Buxoro amiri Nasrulloning elchilarini bilan 1857-yilda Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. U «Buxorodan Peterburgga sayohat», «Buxoroi sharif mang'it amirilari muxtaser tarixi», «Navodir ul-vaqoe» («Nodir voqealar») asarlarining muallifidir. Ahmad Denish 1865yilda amir Muzaffar taklifi bilan «Manozir ul-kavokib» («Sayyoralarning joylanishlari») nomli

astronomiyaga oid kitob yozgan. U faqat Buxoro amirligi emas, balki O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida ham eng ko'zga ko'tirgan madaniyat arbobi sifatida ta-nilgan edi U 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo'lib ishlagan. U astronomiya, tibbiyot, riyoza, me'morchilik Va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san'atini ham o'rgangan edi. Alimad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida -Shohi darvesh", „Ajoyib at-tabaqof" va boshqa asarlar buning dalilidir.

28-BILET

I. 00 'qon xonligining tashkil topishi.

Norbo'tabiyning o'g'li Olimbek hukmronligi davrida Qo'qonning siyosiy mavqeい yanada kuchaygan, harbiy islo-hot o'tkazilgan. Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent va Sayram tobe etilgan, tashqi savdoga ham e'tibor kuchaytirilgan. 1805 yil davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilinib, Olimbek "xon" unvonini Olgan. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzish borasida qilayotgan harakatlari ayrim mansabparast zodagoolar guruhida norozilik kayfiyatlarini vujudga keltiradi. Natijada ular Olimxonning safardaligidan foydalananib 1810 yil Qo'qonda "Olimxon Toshkentda o'ldi", degan mish-mush tarqatishadi va uning ukasi Umarbekka toj krygizadilar. Olimxon bundan xabar topib, Qo'qonga yo'l oladi, biroq u Oltiqush mavzeida otib o'dirilgan.

Umarxon davrida xonlik hokimiyatini mustahkamlash va kengaytirish chormani ko'rilgan. 1815 yil Buxoro xonligiga qarashli Turkiston, 1817 yil esa O'ratega bosib olingan. Sirdaryo bo'yida bir qancha harbiy istehkomlar barpo etilgan; sug'orish inshootlarini kengaytirish, kanallar qazish, masjid va madrasalar qurishga e'tibor berilgan. Xususan, Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, avliyoota (hozirgi Jambul)da masjid va madrasalar qurilgan. Mozorlar tartibga solingan. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida fan, adabiyot, san'at nisbatan yuksalgan. Bunda uning sevimli xotini — mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegimning xizmati katta bo'lgan.

Umarxonning o'zi ham "Amiri" taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida g' azallar yozgan. Umarxon valotidan so'ng uning 12 yoshli o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgan Xon yosh bo'lganligi uchiun davlatni dastlabki davrda onasi Nodi-rabegim boshqargan.

Nodirabegim madaniyat va san'atni rivojlantirishga intilgan.

1826 yil Sharqiy Turkistonda xitoylarga qarshi bosh ko'targan musulmon aholiga yordam berish uchun qo'shin tor-tib borilgan. Natijada Xitoy huku-mati Sharqiy Turkistonning 6 ta shahri (Oqsuv, Qashqar, Yorkend, Xo'tan va boshqalar) dan soliq olish huquqini Qo'qon xonligiga berishga majbur bo'lgan.

Muhammad Alixon xonlik hududini kengaytirishga intilib, Jan. Olay tog' etagidagi Qurategin, Dar-voz, Shug'non, Ro'shon, Vohon bekliklarini bo'ysundirgan. Bu davrida xonlikda sug'orish ishlari ancha yo'liga qo'yilgan. Toshkent yaqinida Xonatiq kanali qazilgan. Tashqi iqtisodiy savdo aloqalari ham ancha yaxshilangan. Buxoro amiri Nasrullo (qarang Nasrullahxon) bilan yuz bergan urushda (1840 yil) Muhammad Alixon yengilib, Xo'jandni amir Nasrulloga topshirishga va o'zini uning noibi deb tan olishga majbur bo'lgan. Ammo Buxoro — Qo'qon munosabatlari bundan keyin ham kes-kinlashgan. Natijada 1841 yil noyab. oyida Muhammad Alixon o'z ukasi Sultan Mahmud foydasiga taxtdan voz kechgan. Bu voqeadan xabar topgan amir Nasrullo Qo'qonga bostirib kelib, uni talon-toroj qiladi. U shu qirg'in-barot davomida Muhammad Alini, uning ukasi Sultan Mahmudxonni, onasi Nodirabegimni va boshqa yuqori man-sabdiorlarni qatl ettiradi. Amir farmoni bilan Qo'qon xonligi Buxoro noibi tomo-nidan boshqarila boshlangan. Amir noibi Qo'qon xonligi aholisiga og'ir soliqlar yuklaydi. Natijada 1842 yil yozida qo'qonliklar qo'zg'olon ko'taradi, amir Nasrulloga sodiq kishilarning ko'pchiligini o'ldiradilar va Norbo'tabiyning ukasi Hojibekning o'gli Sheralini xon qilib ko'tarishadi. Buui eshitgan Buxoro amiri Qo'qenga qo'shin tortib o'z hukmronligini qayta o'matish uchun uni qamal qiladi. Biroq qamalining qirqinchchi kuni Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro hududiga qilgan hujumi haqidagi xabarni eshitib, orqaga qaytishga maj-bur bo'lgan. Natijada qo'ldan ketgan ko'pgina hududlar (Xo'jand, Toshkent) yana Qo'qon xonligi ixtiyorida qoladi.

Sheralixonning (1842—45) taxtga o'tirishiida ko'makchi va xayriyoh bo'lgan qipchoqlardan Musulmonqul mingboshi qilib taymangan. Musulmonqul, asosan, harbiy ishlari bilan shug'ullangan va xon qo'shimlarining tarkibini ko'proq qipchoq yig'ilan bilan to'ldirgan. Musulmonqul o'z mavqeidan foydalaniib, Seralixonga o'z ta'sirmi o'tkazishga intilgan. Ammo xon bunga yo'l qo'yumaslikka intiladi. Musulmonqul xondan norozi bo'lib, boshqalarining qo'li bilan suiqsas uyushtirishga harakat qilgan. 1845 yil O'shda xomning soliq siyosatiga qarshi qo'zg'o-lon boshlamadi. Musulmonqul qo'zg'o-lonni bostirishga ketganida, uning sheriklari Olimxonning o'g'li murodbekni Qo'qonga taklif qilib taxtga o'tqazganlar. Seralixon o'dirilgan. Taxtni saqlab qolish uchun Murodxon o'zini Buxoro amirining noibi deb tan olishga majbur bo'lgan. Musulmon-qulni mingboshi lavozimida qolganligi haqida farmon chiqaradi va uning Qo'qonga qaytishini talab qiladi. Musulmonqul esa O'shdan Namanganga kelib qizini Seralixonning o'g'li Xudoyorga turmushga beradi va u bilan Qo'qonga kelib, Murodxonni o'dirib, yo'sh Xudoyomi xon deb e'lon qiladi (qarang Xudoyorxon). Musulmonqul xomning yoshligidan foydalaniib xonlikni deyarli mustaqil ravishda o'zi boshqaradi, katta lavozimlar qipchoqlarga ulashib beriladi. Natijada Musulmon-quiga qarshi xonlik hududida norozlik harakati kuchaydi va u mingboshilikdan bo'shatiladi. Musulmonqul o'z mavqeini tikdamoqchi bo'lib, ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va ruslarning vakili V.V. Velyaminov-Zernov bilan 1853 yil bahorda maxfiy uchrashadi. Musulmonqulning rus qo'mondoni vaki bilan uchrashgan va hokimiyatni o'z qo'liga olmoqchi bo'lganligidagi xabar topgan o'zbek va qirg'iz zodagonlari (Muhammad Niyozi Qushbegi, muhammad Rajab Qo'rboishi, Muhammad Yoqubbek qushbegi va boshqalar) qipchoqlardan qutulish yo'llini axtarib Xudoyorxonni o'zlarini tarafga og'dirib, 1853 yil qipchoqlar qirg'inini boshlab yubcrishgan. Musulmonqul asirga olinib, qatl qilingan. Biroq Qo'qon xonligida o'zaro taxt uchun kurashlar tinchimagan, yuqorida harbiy amaldorlar Xudoyorxonga qarshi fitma tayyorlaganlar, biroq u muvaffaqiyatsiz chiqqan (qarang Yoqubbek). Qisqa vaqt ichida xonlar bir necha marfa almashtigan (1852—62 yillarda Seralixonning o'g'li Mallaxon, 1862—63 yilda Sholmu-rodxon, 1863 yil may-iyunda yana xudoyorxon, 1863 yil iyul — 1865 yillarda Mallaxonning o'g'li Sultan Sayidxon xon bo'lgan).

2. Buvuk Xitov devori haqida ma'lumot bering.

Sin Shixuandi o'z davlatini ko'chmarchi xunnalarning hujunlaridan himoya qilish uchun Shimoliy Xitoy bo'ylab qunligan mudofaa devorini yanada ustahkanlashtini buyuygan. Devori qurish ishlari dastlab mil. avvalgi IV asrda boshlangan. Bu devor tarixda Buyuk Xitoy devori deb atalgan. Uning balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dushman qo'shimlari uchun jiddiy to' Siq bo'lib xizmat qilgan. Otliq qo'shinlar undan oshib o' ta Olmas, qaf'alarni hujum bilan zabt etishni esa ko'chmarchilar hali uddalay olishmasdi. Podsho va amaldorlar devor qurilishida minglab dehqonlarni majburan ishlatganlar.

3. Imom Buxorivning havoti va faolivati.

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810—870) islam ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asarlar yozdi Utin birgina "Al-jome' as-sahih" asariga 7275 hadis kiritilgan. 1998-yil oktabrda buyuk imutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Kartang qishlog'ida "Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi" barpo etildi. 4 jildi "Al-jome' assahih" kitobi ilk bor o'zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etildi.

29-BILET

1. Xiva xonligining tashkil topishi.

Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505 yilda bosib Olgan. Shayboniyxon vafoti (1510 yil) dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo'l ostiga o'tdi. Ularga qarshi xalq qo'zg'oloni bo'lib, unga Vazir qal 'asi qozisi Umar va Baqirg'on qishlog'idan mulla Sayd Hisomiddin boshchilik qildi. Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida eroniyalar mamlakatidan quvib chiqarilgan va xorazmiyklar taklifi bilan 1511 yilda Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingan.

1512 yilga kelib xonlik hokimiyyati ko'chmarchi o'zbeklarning boshqa urug'i (shejarnasi) mahbari Elbarsxon qo'liga o'tadi. Shu vaqtidan boshlab Xiva xonligi yuzaga keladi, uning poytaxti turli yillarda Vazir, Qo'hna Urganch va Xiva shaharları bo'lган. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mang'ishloq, Balxan tog'ları, Dehiston, O'zboy(Uzboy) va O'rta Xuroson hududları kirdi. Elbarsxon (1511—16) bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazinga kelgan qabilalar o'troqlashganlar. Uning davrida xorazmliklar Turkmanistuning jamubiy qi'si, Eron shimalidagi Saraks, Orol va Mang'ishloqni egallashgan. Yangi yerlarni Elbarsxon o'g'illari va ukasi, qarindoshlariga bo'lib berishi natijasida mayda hokimliklar paydo bo'lган. Elbarsxon vafotidan keyin uzlusiz o'zaro nizolar sababli xonlari tez-tez ahnashib turgan. 16-asrda Xiva xonligini Sultan Hojixon (1516), Husaynqulixon (1516), So'friyonxon (1516—22), Bujaqaxon (1522—26), Avaneshxon (1526 38), Alixon (1538—47), Akatoyxon (1547 56), Yunusxon (1556 — 57), Do'stxon (1557 58), Hoji Muhammadxon (1559—1602) ham boshqarganlar. Bu davrida xalq, Elbarsxon avlodlari o'tasidagi o'zaro qirg'inlaridan tashqui Buxoro va Xiva xonligi o'tasida unshlar azobini ham tortishga majbur bo'lган. Buxoroliklar Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukumroulik davrlarida (1537—38; 1593; 1595—98) Xorazminga hujunlar qilib, qisqa vaqt Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundirganlar. Bu urushlar va 16-asming 70-yillarda Amudaryo o'zanining O'zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi ham Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

2. Buxoro arki haqida ma'lumot berine.

Eng ko'hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida ansambl holiga kelgan. Ark qal'asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayodining furzandi Siyovush nomi bilan bog'liqidir. Ma'lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samanqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda — Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to'xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o'dirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasiyonida ko'milgan degan rivoyatlar bor. VII asrda Buxoro bokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O'sha davrda ark oldida katta maydon — registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'enlari bo'lган. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar — shahriston joylashgan. Ko'plab me'moriy yodgorliklari o'zida jamuljam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlari, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukmdorlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar-joy binolari bunyod etilgan. Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlar tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani — rabot qurshob turgan. Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug' insonular yashab ijod qilganlar. Ark to'grisida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikmi bildirgan: "Men bu yerdag kutubxonada shunday kitoblami topdimki, ularni avval ko'maganman va unrimda boshqa ko'rmadim ham Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning O'z fani bo'yicha o'mini angladim. Mening oldimda fauluning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kutubxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas", degan ma'lumotlar bor. Ark qal'asi to'grisida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) "Buxoro tarixi" kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal'ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqm ko'n biladigan done kishilarni chaqradi. Donishmandilar arki katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal'asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma'lumotlar bor. Ark qal'asi yer ushidagi katta balandlik, u balandligi 20 m Cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g'arbdau sharqqa cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Jambi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan. Qa'fa devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi. Ark qal'asi bir necha mana ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tariла boruvechi yo'l (pandus)

orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kirladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'rالган. Ark qaf'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar — "guldastalaf konstruksiyasi va ular oralig'idagi uch qavatlari bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon yo'lakning Chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomonidagi tokchalarining ba'zitarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

"Guldasta"lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto'la — kanaxonalar bo'lgan Doloming o'ng tomonidagi o'ita tokchada afsosniy qahramon Siyovush arvohiga Navro'z bayramlari Chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagini zinadan kirlgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo'lgan). Dolondan chiqaverishda to'pchi boshining mahkamasi, shu yerdagini ayvon tagidagi yerto'lada esa qynoqxona bo'lgan. Undan sal narida (g'arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shapi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan. Ark qaf'asining shimoli-g'arb burchagida to'pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oslixona, orqa tarafida zarbkhona (Oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xona) joylashgan. Zarbkhonaning shimoli-sharqida zargarkhona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba' zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovli orqali chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli — ko'rinishxona o'mashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyoshi tushar tomoni peshayvon bilan o'rالган. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo'g'omlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining janub tomonida Mehmoxxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatlari binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehnunxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan. Arkning markazida o'rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxonasi — amir haramidagi qizlar uylari o'mashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Baltol g'ozni mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'yib g'ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o'q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%si saqlangan. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Ark ansambl mustaqillik yillarida so'nggi bor restavratsiya qilingan.

3. Xoja Bahouddin Naqshbandiy hayoti va faoliyati.

Bahouddin Naqshband 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi imammand oиласида duryoga keladi. Yoshligida ta'lim Olish bilan bir qatorda kimxob maloga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan. Xoja Bahouddin, "Hayotnomasi" va "Dalil al-oshicin" nomli asarlaryozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xurosor va Xorazmida keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kum kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dil ba yor-u dast ba kor" ("Ko'ngil Alichda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band bo'lsin") degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqsh bandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi astlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Joniy, Xoja Ahror kabi buyuk allowmalar katta hissa qo'shadilar.

30-bilet

1. Buxoro xonlicini tashkil topishi.

Shayboniylar urf-odatiga ko'ra, vafottopishi etgan xon o'rniغا taxtga yoshi katta shayboniy o'tqazilgan. Shuning uchun ham Muhammad Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, amakisi Ko'chkunchi Sultan o'tqazilgan. XVI asming 40- yillardan so'ng bu urf-odatga rioxayet etilmay qo'yilgan. Ko'chkunchixondan so'ng esa taxtga uning o'g'li Abu Said (1530 -1533) o'tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o'g'li Ubaydullaxon (1533 -1540) qoliga o'di. Ubaydullaxon poytaxtni Samarquddan Buxoroga ko'chirirdi, Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sultan (Ubaydullaxoning otasi)ga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

2. Xudoyorxon sarovi haqida ma'lumot bering.

Xudoyorxon saroyi minglar sulolasiga mansub Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan buniyod etilgan. Xudoyorxon (1831—1882) uch marfa — 1845, 1862, 1865-yillarda taxtga chiqib (1845-1875-yillarda tanaffuslar bilan: 1845-1858; 1862-1863; 1865-1875), umumiyy hisobda chorak asr hukmronlik qilgan. Sherelixonning o'g'li Qaynotasi Musulmonqul tomonidan taxtga o'tqazilgan. Animo yosh bo'lganligi tufayli amalda davlat ishlari Musulmonqul boshqarib borgan. Saroy 1863-1870-yillar oraliqida qurilgan. U sun'iy tepalikka baland g'ishtin poydevorli qilib qurilgan xon qarorgohi, o'da ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda toydalaniqidigan yuzga yaqin katta-kichik xonalar, ichki-tashqi xonalardan iborat bo'lgan. Saroy xonning oilaviy tunar-joyi bo'lishi bilan birga, davlatning bosh boshqaruv apparati ham shu yerda bo'lgan. Me'moriy obidaning qurilishiha xon va pishgan g'isht, marmar, quyma gauch, parket, tosh, yog'och, tuzuka har xil qimmatbahio toshlar va boshqa ashyolar ishlataligan. Saroyning bosh tarzi bir qavatlari qilib buniyod etilgan, pishiq g'ishtidan (26x26x5 sm) ganj suvoqda terilgan devorlarga bir g'isht chuqurlikda ravoqlar ishlangan. Peshtoq o'rda devoridan birmuncha bo'rttirib oldinga chiqarib qurilgan, baland va hoshnati, peshtoqning ikki yoni va tarzlarining ikki burchaklarida gumbazli mezanalar bilan yakunlangan guldastalar bor. Peshtoqqa uzumligi 40 m bo'lgan qiya yo'llka (pandus) orqali o'tiladi. Xudoyorxon o'r dasi bosh tarzi ravoqlari, peshtoq va guldastalaridagi handasiy naqshlar koshinlar, sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. Peshtoq orqali to'siburchak tarqli darvozaxonaga o'tiladi, darvozaxona gumbazi o'zaro kesishgan ravoqli asos ustiga qo'yilgan, gumbaz ustti, o'z navbatida, qubbali mezana bilan yakunlangan, undagi panjaralari darchalar orqali ichkariga yorug'lik tushadi. O'r daning bosh tarzi, xonalar koshinlar, o'yma ganzhkorli naqshlar bilan bezatilgan, shiftlari hovuzakdi bo'lib, ularga gullar solingan, xonalarning lepa qismi sharafalar bilan hoshiyalangan. Saroyning umumiyy ko'rinishi 3 qismdan iborat bo'lgan Birinchi qism xon saroyi, majlislar o'tkaziladigan va davlat ishlari yuritiladigan xonalardan iborat bo'lsa, ikkinchi va uchunchi qismlar (ichki qismlar) xon harami va istiqomat xonalardan iborat bo'lgan. Me'moriy obida Sharq an'analarini asosidagi gumbazsimon, to'g'ri to'fiburchak, "Chof ushubida qurilgan Ushbu inshoot faqat bitta hukmdor tomonidan qurilgan va faqat shu hukmdorining ushbu saroydan davlat boshqaruvida va boshqa jahbalarida faoliyat yurita Olgan. O'r daning Farg'ona vodiysidagi boshqa tarixiy inshootlardan farqli jihat shundaki, u davlat hukmdorining saroyi hisoblangan. Xudoyorxon o'r dasining 1998, 2002-yillarda ta'mirtalab qismlari tiklandi 1924-yilda Xudoyorxon o'r dasida Qo'qon xonligi yutuqlari ko'rgazmasi ochilgan. 1925-yildan saroyda Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeysi faoliyat ko'satib kelmoqda.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning havoti va faoliyati.

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) - o'zbek muntoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, istedodli surkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Boburning otasi - Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi - Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlariada faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadomi poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari

Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan fasini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik foziyu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rGANADI, ko'plab tanixiy va adabiy asarlar umtolas qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziga boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Boburo» («Sher») laqabini oladi. Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur susiy - Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhiida vuyaga yetadi, unuring oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasisizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 Yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494 yil iyun).

Movarounnahr 15-asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pxon-ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxi uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fittular uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukindorga (Boburga) buynuzishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilari mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilda mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shimni tartibga kelтирish, davlat ishlariда intizom o'matish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallashi va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash handa Amir Temur saltanatini qayta tikdashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchli hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494 yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadidi - qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshiida vafot etdi. Uning o'miga Buxoroda hokum bo'lgan o'g'li Boysung'ur o'tiradi. 1495-96 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurishi qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi. Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli niroyatda og'ir kuvalarni boshidan kechimmoqda edi. Hatto ekkulik do's ham topish mushkul edi. Bobur qo'shimni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Aksi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, syni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror kiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ictiyoriga o'tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shimiga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'may, Marg'ilonni qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Niroyat, 2 yildan so'ng (1498 yil iyun) uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan suhlu tuzib, uning ictiyorida «Xo'jand suvinining Aksi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafli viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi. Bobur 1500 yil kech kuzida o'z qo'shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshisa G'uzor shahrilari Bobur hokimligi e'tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zahiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shini yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davomi etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501 yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi. 1504 yil iyunda Movarounnahrni tark etishga majbur buladi. 1507

yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi (bu paytda u Kobul hukmdori edi). Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi.

@Official_AKT

@Official_AKT